

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

RADJAPOV ODILBEK BABANAZAROVICH

**5141500 “Milliy istiqlol g‘oyasi, huquq va ma‘naviyat asoslari
ta‘limi” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-jamiyatimiz
taraqqiyotining huquqiy asosi**

Ilmiy rahbar:

o‘qit. U. Hajiyeu

Urganch 2013 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi

(kafedra nomi)

**“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-jamiyatimiz
taraqqiyotining huquqiy asosi”**

(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi
Rahbar

Radjapov Odilbek
o‘qit. Hajiyev Ulug‘bek

Urganch shahri
2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Radjapov Odilbekga Universitet rektorining «189T»1&-sonli 25 dekabr 2012- yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-jamiyatimiz taraqqiyotining huquqiy asosi**” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan. o‘qit. U. Hajiyeu bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig‘ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

_____ **ilova qilinadi.**

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

| <i>№</i> | <i>Bajarilgan ishning mazmuni</i> | <i>Bajarish muddati</i> |
|----------|---|-------------------------|
| 1. | Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash. | 2012 yil dekabr |
| 2. | Materiallar izlash | 2013 yil yanvar |
| 3. | Ishning kirish qismini tayyorlash | 2013 yil fevral |
| 4. | I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish | 2013 yil mart |
| 5. | I I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish | 2013 yil aprel |
| 6. | Ishning xulosasini tayyorlash | 2013 yil may |
| 7. | Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish | 2013 yil may |

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

o'qit. U. Hajiyev

Bajaruvchi talaba:

Radjapov Odilbek

2013 yil «29» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yil tasdiqlandi

(«9»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullayev

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO‘YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Radjapov Odilbek

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-
jamiyatimiz taraqqiyotining huquqiy asosi**

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 74 sahifa

Tushuntirish qismi: 61 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ustuvor konstitutsiyaviy institutlarni o‘zida qamrab olib, unda milliy konstitutsiyaviy huquq tarixini, rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, darslikda O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov asarlari hamda farmonlari, yetuk huquqshunos olimlarning asarlari davlat va jamiyat qurilishi va Konstitutsiya asosida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar o‘z ifodasini topgan.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Radjapov Odilbek barcha fanlarni to‘la o‘zlashtirib, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Radjapov Odilbek o‘zi mustaqil ishlay oladi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O‘zining mutaxassisligi bo‘yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o‘z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yaxshi, ishga masuliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishda konstitutsiyaning davlat hayotidagi ijtimoiy vazifasi, roli va ahamiyati aniq faktlardan, foydalanilgan xolda har tomonlama chuqur yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

o'qit. U. Hajiyev
(f.i.sh.)

2013 yil «25» may

Urganch Davlat Universiteti
Tarix fakulteti
Milliy istiqlol g'oyasi, xuquq va ma'naviyat asoslari yo'nalishining
Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-jamiyatimiz taraqqiyotining huquqiy asosi

Malakaviy ishning hajmi. 12200 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 61 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishi ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalardan, prezident asarlaridan keng foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____ **Xorazm viloyati Adliya boshqarmasi boshlig'ining**
birinchi o'rinbosari O.Allayorov
(imzo) (mansabi, ish-joyi, darajasi, f.i.sh.)

2013 yil «31» may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

| № | Baholanadigan bo‘limlar | Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida |
|----------|--|---|
| 1 | BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 10 |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi | 35 |
| 3 | “Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 10 |
| 4 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 |
| 5 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 |
| 6 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 |
| 7 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 |
| 8 | BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi | 10 |

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti
 Milliy istiqlol g'oyasi, xuquq va ma'naviyat asoslari ta'lim yo'nalishining
 bitiruvchisi Radjapov Odilbekning **“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-
 jamiyatimiz taraqqiyotining huquqiy asosi”**
 mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «___» 2013 yil «___iyun»
 dagi majlisida himoya qilinadi.

**Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi
 o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini belgilaydi.**

| № | Baholanadigan bo‘limlar | Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida | Komissiya belgilagan ball |
|-------|--|--|---------------------------------|
| 1 | BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi | 10 | |
| 2 | Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi | 35 | |
| 3 | “Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi | 10 | |
| 4 | Ishni bajarishda mavzuga oid manbalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish | 10 | |
| 5 | Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi | 10 | |
| 6 | Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi | 5 | |
| 7 | Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi | 10 | |
| 8 | BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi | 10 | |
| Jami: | | | |

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. _____

mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o‘zlashtirish ko‘rsatkichi belgilanishi va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A‘zolari: _____

2013 yil «_____» _____

Urganch Davlat Universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Radjapov Odilbek

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-jamiyatimiz taraqqiyotining huquqiy asosi

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: o'qit. U. Hajiyeu

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «29» mayda o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib O. Allayarov tayinlandi.

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullayev

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

dots. T. Abdullaev

Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası
"Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari ta'limi"
yo'nalishi
5141500 ta'limi bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani
_____ dots. T. Abdullyev
"___" _____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Radjapov Odilbek

1. Ishning mavzusi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-jamiyatimiz taraqqiyotining huquqiy asosi

"25 dekabr" 2012 yil Universitet rektorining «189T 1&»- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "___" _____ 2013 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

A) A.X Saidov. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. T.: 1993

B) R.Q.Qayumov O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997 y,

S) Sh.Z.O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. T., «Adolat», 1994 y.,

D) A.N..Rahmonov Xasanova Z., Davlat boshqaruvini demokratlashtirish davr talabi. «O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va ma'naviy omillari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari.- T.: «Iqtisodiyot», 2011.

E) Aliev B.A., Rahmonov A.N. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning yuksak natijalari.- "Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan" (ilmiy-ommabop risola). T, 2011.

4. Ishning maqsadi: Jamiyat taraqqiyotida Konstitutsiyaning roli va o'rnini ko'rsatib berish

5. Chizma materiallar ro'yxati: _____

6. Maslahatchilar: _____

| Bo'limlar | Maslahatchi F.I.Sh. | Imzo, sana | |
|-----------|------------------------|-----------------|--------------------------|
| | | Topshiriq berdi | Topshiriq qabul qildi |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Xorazm viloyati Adliya boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari O.Allayorov

7. Ilmiy rahbar: Hajiyev Ulug'bek

(imzo)

BMI bajaruvchi talaba: Radjapov Odilbek
(F.I.Sh.)

(imzo)

Kafedra mudiri: dots. O. Abdullaev
(F.I.Sh.)

(imzo)

MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI- JAMIYATIMIZ TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSI.

REJA:

KIRISH.

I-Bob. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining mohiyati va xususiyatlari.

- 1.1-§ Konstitutsiya tushunchasi, turlari va O‘zbekistonda konstitutsiyaviy tarix.
- 1.2-§ O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi va yangi Konstitutsiyani qabul qilish zaruriyati.
- 1.3-§ Konstitutsiyaning yuridik tabiati, asosiy funktsiyalari va barqarorligi.

II-Bob. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining taraqqiyot istiqbollari.

- 2.1-§ Konstitutsiya va siyosiy-huquqiy islohatlarning o‘zaro munosabati.
- 2.2-§ Konstitutsiya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari.
- 2.3-§ Jahon konstitutsiyasi tajribasi va O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro andozalarining aks etishi.

Xulosa.

Adabiyotlar.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy rivojlanish konstitutsiyaviy qayta qurishini qat'iy talab qildi. Biz bugun tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Mamlakatimiz qiyofasi, xalqimizning hayot tarzi izchil yuksalib, yaxshilanib bormoqda. Istiqlolimizning dastlabki kunlaridan boshlab tanlab olingan, taraqqiyotning "O'zbek modeli" degan nom bilan dunyoda e'tirof etilgan milliy rivojlanish yo'limizning amaliy samaralari bugungi kunda hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yilning 7-dekabr kuni "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish bizning bosh maqsadimizdir" mavzusidagi ma'ruzasida ana shu yutuq va ulkan natijalarning sabab va omillari har tomonlama chuqur tahlil etib berildi¹.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda istiqlool yillarida demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida erishilayotgan barcha yutuq va marralar, hayotimizga yangicha mazmun bag'ishlayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida Konstitutsiyamizda mustahkamlangan me'yor va qoidalar, asosiy tamoyillar mujassam ekanini alohida ta'kidladi. Ma'ruzada O'zbekiston 1991 yil 31 avgustda o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan eski ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, xalqimizning orzu-intilishlariga mos taraqqiyot yo'lini tanlab olgani va bu yo'l naqadar to'g'ri va hayotiy asosga ega ekanligi hozirgi kunda har tomonlama tasdig'ini topayotganiga alohida e'tibor qaratildi².

¹ Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. — "Xalq so'zi", 2012 yil 8 dekabr.

Haqiqatan ham, bugun bosib o‘tilgan ana shu yo‘l, uning asosida erishilgan yutuq va natijalarga xolisona baho berib, aytish mumkinki, yurtimizda o‘z vaqtida islohotlarning “Shok terapiyasi” usulidan qat’iy voz kechilib, tadrijiy taraqqiyot yo‘li tanlab olingani tufayli xalqimizni og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy to‘fonlardan asrab qolishga muvaffaq bo‘linganini hayotning o‘zi ko‘plab misollarda isbotlamoqda. Masalan, el-yurtimiz o‘tgan davrda barcha jabhalarda yuqori o‘sish sur‘atlariga erishmoqda, jamiyatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy barqarorlik, uning ma’naviy-ma’rifiy negizlari mustahkamlanmoqda, hayotimizda amalga oshirilayotgan ulkan yangilanish va o‘zgarishlar, mamlakatni modernizatsiya qilish yo‘lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Bizning oldimizda haqiqiy konstitutsiyaviy huquqni yaratish vazifasi turibdi. Busiz hozirgi kunda ijtimoiy taraqqiyotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rivojlangan jamiyat qurish, demokratik, huquqiy davlat yaratish uchun o‘z tariximizni, o‘zbek xalqining milliy xususiyatlarini o‘rganishimiz va jahon tajribasidan foydalanishimiz lozim.

Mavzuning o‘rganganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaning masalalari o‘z navbatida bir qancha olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Saidov A., Qayumov R., O‘razaev Sh., Rahmonov A.N., Xasanova Z., Aliev B.A.,³ va boshqalar.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlaridan va nutqlaridan ham keng foydalanildi.

² Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. — «Xalq so‘zi», 2012 yil 8 dekabr.

³ A.X Saidov. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. T.: 1993, Qayumov R.Q. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIB Akademiyasi, 1997 y, Sh.Z.O‘razaev. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi. T., «Adolat», 1994 y., Rahmonov A.N., Xasanova Z., Davlat boshqaruvini demokratlashtirish- davr talabi. «O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va ma’naviy omillari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. — T.: «Iqtisodiyot», 2011., Aliev B.A., Rahmonov A.N. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning yuksak natijalari.- «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan» (ilmiy-ommabop risola). T, 2011.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi bugungi bosh Qomusimizning ijtimoiy hayotda tutgan o'рни, ahamiyati va yechilishi lozim bo'lgan muammolarni ochib berish va ularning yechimini topishga qaratilgan taklif va mulohazalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Konstitutsiya tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- Konstitutsiyaning huquqiy tabiatini yoritib berish;
- Kichik korxonalarni tugatish va qayta tashkil etishni ochib berish;
- Konstitutsiyaning ijtimoiy vazifasini, davlat va jamiyatda tutgan o'рни, demokratiyani rivojlantirishdagi rolini tadqiq etish, mavjud muammolarni ochib berish va ularning echimini topish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbalari.

Prezident I.A. Karimovning asarlari, hukumat qarorlari, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallari, huquqshunos olimlarining mavzuga oid risolalari, monografiyalari va ilmiy maqolalari, matbuot internet materiallari Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda metodologik asos va muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ishning ilmiy yangiligi. Konstitutsiyaning o'ziga xos belgilarini ochib berishga qaratilgan, shuningdek, asosiy qonunni o'rganishga yo'naltirilgan kompleks ilmiy-nazariy tadqiqot.

- **Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Ishning materiallaridan talabalar Konstitutsiyaviy huquq, Davlat va huquq nazariyasi O'zbekiston tarixi, jamoat tashkilotlari tarixi, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanlarini o'rganishda va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida keng foydalanishlari mumkin.

- **Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ish Kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, u 74 sahifani tashkil etadi va uni tayyorlashda 34 ta adabiyot va internet saytlaridan foydalanildi.

I-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI.

1.1 Konstitutsiya tushunchasi, turlari va O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi.

«Konstitutsiya» tushunchasi XVIII asr oxirida paydo bo‘lib, «Konstitutsiya»ga turli xil ta’riflar berilgan bo‘lib, ulardan bir necha misollar keltiramiz.⁴

Birinchi ta’rif: Fransuz davlatshunos olimi J.Byurdoning Konstitutsiyaga bergan ta’rifi: «Konstitutsiya - siyosiy hokimiyatlarni tayinlash, tashkil etish va faoliyat ko‘rsatishga oid qoidalar yig‘indisidir».

Ikkinchi ta’rifda esa ushbu (yuqoridagi) ta’rifga Amerikalik olim K.Berd «Fuqarolar erkinliklari» tushunchasini qo‘shadi.

Uchinchi ta’rif sifatida Nigeriyalik konstitutsiyashunos B.Nvabuezening ta’rifini berashimiz mumkin: «Konstitutsiya - bu qonun kuchiga ega bo‘lgan formal hujjat bo‘lib, uning yordamida jamiyat o‘z-o‘zini boshqaradi hamda o‘zining turli idoralari bilan shuningdek, bu idoralarning fuqarolar bilan munosabatlarini o‘rnatadi».

Ko‘pchilik hollarda konstitutsiyaga u tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar predmetiga qarab tushuncha beriladi.

Shu ma’noda, Konstitutsiya - davlatning Asosiy Qonuni bo‘lib, davlat hokimiyatini tashkil etishni va hokimiyat, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Konstitutsiya tushunchasini ochib berishda uning mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlardan turli huquqiy oqimlar vakillari Konstitutsiya mohiyatini turlicha ta’riflaydilar.

Masalan, tabiiy huquq maktabi vakillari Konstitutsiya -xalq (millat) ning umumiy irodasini ifodalovchi o‘ziga xos ijtimoiy shartnomadir deydilar. Normativ huquq nazariyasi vakillari esa Konstitutsiya bu oliy huquqiy normaning ifoda

⁴ O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas’ul RA.Muhitdinov va boshqa.; Mas’ul muharrir N.Toychiev. -T.: «Adolat», 2010. 43 bet

bo‘lishidir deb tushunadilar. Marksizm-leninizm

Konstitutsiyani sinfiy kurashning mahsuli sifatida baholaydi. Bizning fikrimizcha, Konstitutsiya- umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni eng umulashgan in’ikosidir.

Turli mamlakatlardagi konstitutsiyalarni turli mezonlarga (kriteriyalarga) asoslanib, har xil guruhlarga (turlarga) bo‘lish mumkin.

Birinchiidan, konstitutsiyalarni ularning mohiyatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Yuridik Konstitutsiya (formal) - davlatning Asosiy Qonuni.
2. Ijtimoiy (sotsial) Konstitutsiya (amaliy) - amaldagi real ijtimoiy munosabatlar.

1. Tirik Konstitutsiya - AQSh Oliy Sudi bu Konstitutsiyani o‘zgarayotgan ijtimoiy mezonlariga moslab kelmoqda.

2. Fiktiv (soxta) Konstitutsiya - SSSRning 1936-yil Konstitutsiyasi.

1. Moddiy Konstitutsiya - konstitutsiyaviy tuzum va inson huquqlarini tartibga soluvchi qonundir.

2. Formal Konstitutsiya - Asosiy Qonun bo‘lib, alohida tartibda qabul qilinadi va oliy yuridik kuchga ega.

Ikkinchiidan, konstitutsiyalarni shakliga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Yozma konstitutsiyalar.
2. Og‘zaki (yozilmagan) konstitutsiyalar - Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Butan kabi davlatlar Konstitutsiyalari.

Tarixda «Turon», «Turkiston» va «Movarounnahr» nomi bilan mashhur bo‘lgan O‘rta Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston hududida minglab yillar davomida yuksak madaniyat gullab yashnadi, qudratli davlatlar mavjud bo‘ldi. Ular insoniyat tarixida sezilarli iz qoldirdi⁵.

Masalan, tarixiy manbalarga ko‘ra, XIII-XIX asrlarda Movarounnahrda

⁵ Karimov I.A: «Bunyodkorlik yo‘lidan», T., «O‘zbekiston « – 1996. 340-bet

davlatning huquqiy ahvoliga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib kelgan Amir Temur tuzuklari Sharqona madaniyatga monand konstitutsiyaviy hujjatlar edi⁶.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda mustaqilligimizning mustahkamlab qo'yilishi ota-bobolarimizning uzoq yillar mobaynida olib borgan kurashlari natijasidir.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasida 1917-yil oktabr oyida davlat to'ntarishi bo'lib o'tdi, o'zlarini xalqparvar deb e'lon qilgan, kommunistlar hokimiyatni qo'lga oldilar. SHundan keyin O'rta Osiyoda o'rnatilgan shovinistik tengsizlik natijasida milliy ozodlik harakatlari vujudga keldi. Boshqa millatlarni bir-biriga qarshi qo'yish, (masalan dashnoqlarga, O'rta Osiyoda mahalliy xalqni qirg'in qilishlariga sharoit yaratib berildi) kabi salbiy ishlarni amalga oshirdilar. Turkiston ASSRning 1918 va 1920 yillaridagi Konstitutsiyalari, Xorazm va Buxoro Xalq Respublikalarining 1920-1921-1923 yillardagi konstitutsiyalari, O'zbekiston SSSRning 1927, 1937, 1978 yillardagi Konstitutsiyalarni qabul qilgan edi.

Sovetlar davrida O'zbekiston hududida 1918 yil 30 apreldagi Beshinchi Turkiston s'ezdida va Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi RSFSRning tarkibiga kiritilib, Turkiston ASSR ning muvaqqat (vaqtinchalik) konstitutsiyaviy "Nizomi" qabul qilingan edi⁷.

Turkiston ASSR Konstitutsiyasining tuzilishi va mazmunini quyidagi prinsiplarini ko'rsatib o'tish mumkin. Konstitutsiyada Turkiston Avtonom Sovet sotsialistik respublikasi ekanligi, u o'z tarkibiga boshqa davlat tuzilmalarini qabul qilishi va ularni o'z tarkibidan chiqarishi, qonunlar qabul qilish huquqlari va boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqalar o'rnatish, moliyaviy ishlarni o'zi hal etish kabi huquqlari faqatgina qog'ozlarda ko'rsatilgan edi. Shuningdek, Turkiston ASSRning boshqa sohalardagi vakolatlari ham, shunday juda keng berilgan bo'lib, bu avtonom respublikaning tushunchasiga umuman to'g'ri kelmas edi, chunki bu davrga kelib Rossiyadagi fuqarolar urushi tufayli Turkiston bilan vaqtincha aloqalar yaxshi yo'lga

⁶ A.X Saidov. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. T.: 1993, 3-bet.

⁷ Qayumov R.Q. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997y. 54 b.

qo'yilmay qolgan edi⁸.

Turkiston ASSRning ikkinchi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentabrda Turkiston Sovetlarining IX-s'ezdida Butun Ittifoq Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan sanksiyalangan: «Turkiston ASSR RSFSRning bir qismi sifatida avtonomdir» degan qarori ostida qabul qilinib, Turkiston ASSRning «qanday yashash huquqi» aniq qilib qo'yilgan edi.

1920 -yil 30- aprelda Butun Xorazm Sovetlarining s'ezdi o'tkazilib, uning birinchi Konstitutsiyasini qabul qilgan. Bu Konstitutsiya milliy-davlat tuzumiga qarshi tuzilgan bo'lib, Sovetlar hokimiyatini o'rnatishning birinchi bosqichida mamlakatdagi ishlab chiqarish vositalarini xususiy mulkligicha saqlash, erga shaxsiy egalik qilish, uni sotish, har kimning o'z boyliklaridan erkin foydalanish huquqlari cheklashlarsiz ruxsat etilgan.

O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazilishi natijasida Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet respublikalarining o'rnida O'zbekiston va Turkmaniston SSSR, Tojikiston ASSR, Qirg'iziston va Qoraqalpog'iston Avtonom viloyatlari tashkil etilgan.

Hozirgi O'rta Osiyo respublikalarining konstitutsiyaviy-tarixiy davlat qurilishi sobiq ittifoq xukmronligiga o'tgan davrdan boshlab, 1917 yilgi soxta kommunistlarning (davlat to'ntarishi) inqilobi yuz bergan vaqtdan to 1922 yilga qadar jarayonlarni o'z ichiga oladi.

1922 yil 30 dekabrda “Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining tuzish haqidagi deklaratsiya” va “SSSR ittifoqining tuzish haqidagi shartnoma” SSSR konstitutsiyasini yaratilishiga asos solgan edi.

“SSSR ittifoqini tuzish haqida deklaratsiya”da teng huquqli ittifoqdosh respublikalarning ixtiyoriy ravishda birlashuvini e'lon qilib, uning tarkibiga boshqa davlatlarning kirishi ochiq deb ko'rsatildi. SHuningdek undan chiqish erkinligi huquqi ham belgilangan edi.

“SSSR ittifoqini tuzish haqidagi shartnomada” uning tarkibiy qismi bo'lgan

⁸ Qayumov R.Q. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997 y 55 b.

respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni belgilab berdi. Bu xujjatlarning tuzilishi jixatdan demokratiyaviyligi xalqaro huquq normalari darajasida edi. Lekin amalda SSSR tarkibiga kirgan respublikalar ijtimoiy-siyosiy hayoti KPSS qarorlari asosida tartibga solinib "markaz"lashtirilgan edi. Konstitutsiya va qonunlar ikkinchi darajali hisoblanib, kommunistik g'oya yakkaxokimchilikka moslashtirilib kelingan. Natijada uning xukmronligida bo'lgan xalqlarning davlatchilik rivojlanish bosqichlarini o'zgarib, bir necha yuz yil orqaga surib yubordi.

1922 yil 30 dekabrda tashkil etilgan SSSR tarkibiga Ukraina, Belorussiya va Kavkazorti respublikalari kiritilgan. Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan respublikalar konstitutsiyaviy tarixiy bosqichlarini ikki davrga bo'lib, tanqidiy nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Birinchi davr 1917-1922 yillarni o'z ichiga olsa, 1924-1991 yillar so'nggi davri bo'lib hisoblanadi. 1925 yil 17 fevralda O'zbekiston SSSRning I-s'ezdi bo'lib, 1924 yil 31 yanvardagi SSSR Konstitutsiyasiga muvofiq, «O'zbekiston SSSRni tashkil etish to'g'risida»gi Deklaratsiya qabul qilingan. SSSR Konstitutsiyasining I-bo'limi: «Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqini tuzish haqidagi deklaratsiya» va «Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqini tuzish haqida shartnoma»dan iborat bo'lgan.

O'zbekiston SSSRning birinchi Konstitutsiya loyihasi Sovetlarining II-s'ezdida 1927 yil 27-31 mart kunlari tasdiqlangan. Bu Konstitutsiyada ham boshqa Ittifoq respublikalari Konstitutsiyalaridagidek, davlat hokimiyati vakolatlarini «ishchi dehqon va qizil askar Sovetlarining deputatlari amalga oshiradilar», deb belgilangan.

Konstitutsiyada xotin-qizlar tengligi, fuqarolarning teng huquqliligi, matbuot erkinligi, ommaviy yig'ilishlar o'tkazish, ko'chalarda namoyish o'tkazish huquqlari ko'rsatib o'tilgan. Bu huquqlar faqat qog'ozlarda SSSRdagi siyosatning boshqa davlatlarga namoyish etilishi uchun yozib qo'yilgan.

1978 yili O'zSSRning uchinchi Konstitutsiyasi qabul qilingan. 1978 yil 19 mart kuni O'zSSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasi matbuotda e'lon qilingan. O'zSSR Oliy Sovet Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O'zSSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktabrida amalga kiritilgan Konstitutsiyasiga mosligi muhokama qilinib ayrim moddalariga o'zgartirishlar

kiritilgan va 19 aprel kuni qabul qilingan. Konstitutsiyaning tuzilishi kirish qismidan, XI bo‘lim, 21 bob va 183 moddadan iborat bo‘lib, ushbu Konstitutsiyada ham Sovet hokimiyatini amalga oshish qoidalari va ishchi dehqon sinfining kommunistik jamiyat qurishdan iborat oliy maqsadi belgilab berilgan. Masalan, Konstitutsiyaning kirish qismida, “Xalq davlat hokimiyatini Sovetlar orqali amalga oshiradi” deb “Kommunistik partiyaning jamiyat hayotidagi rahbarligi va etakchilik qilishi”ga ko‘p ta’rif berilgan. 70 yildan oshiqroq vaqt davomida qabul qilingan Konstitutsiyalarda xalq hokimiyati haqida chiroyli so‘zlar bayon qilingan, lekin amalda joylarda tuzilgan viloyat, tuman, shahar, qishloq va posyolka Sovetlari kommunistik partiya dasturlari, rejalari bilan tashkil qilingan, soxta saylovlar o‘tkazilgan jamiyat va davlat hayotida hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko‘ra bilganligi va unga to‘g‘ri baho bera olganligi, shunda ko‘rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo‘lib u 1990 yil 20 iyunda «O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi»ni qabul qildi. O‘sha davrda Ittifoqni tish-tirnog‘i bilan saqlab qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg‘ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin. O‘zbekistonni Mustaqilligining e‘lon qilinishi va uning tinchliksevar mamlakatlar tomonidan tan olinib qo‘llab-quvvatlanganligi O‘zbekistonning tinch yo‘l bilan o‘z huquqini mustahkamlab olishida juda katta yordam berdi⁹.

O‘zbekiston o‘zining maqsad va taraqqiyot yo‘lini belgilab, 1991 yil 31 avgustdagi Oliy Kengash yig‘ilishida qabul qilingan «Davlat Mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunni butun dunyoga e‘lon qildi. 1991 yil 21 dekabrda Sobiq Ittifoq respublikalari rahbarlari o‘zaro hamkorlikni tenglik asosida, xalqaro huquq normalariga tayangan holda tashkil etishni yo‘lga qo‘yish maqsadida

⁹ Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta‘miilash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish — bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. — Toshkent, 2013. 8 bet.

va sobiq Ittifoq taqdirini uzil-kesil hal etish uchun Olmaotada uchrashdilar. Sakkiz respublikaga Armaniston, Moldaviya va Ozarbayjon Respublikalari ham qo'shildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi deklaratsiyasiga 11 respublika rahbarlari qo'l qo'ydilar. SHunday qilib, 1922 yilda ta'sis etilgan SSSR Ittifoqi barham topdi va Olmaotada 11 ta Mustaqil Davlatlarning Hamdo'stligi vujudga keldi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va yangi Konstitutsiyani qabul qilish zaruriyati.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko'ra bilganligi va unga to'g'ri baho bera olganligi, shunda ko'rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo'lib u 1990 yil 20 iyunda « Mustaqillik deklaratsiyasi»ni qabul qildi ¹⁰. O'sha davrda Ittifoqni tish-tirnog'i bilan saqlab qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg'ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin. O'zbekistonni Mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tinchliksevar mamlakatlar tomonidan tan olinib qo'llab-quvvatlanganligi O'zbekistonning tinch yo'l bilan o'z huquqini mustahkamlab olishida juda katta yordam berdi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishida, avvalo, 1990 yil 24 mart kuni Sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchi bo'lib Prezidentlik lavozimining joriy etilishi muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasida Prezidentlik lavozimining joriy etilishi mustaqillik g'oyalarini tezkorlik bilan amalga oshishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1990 yil 20 iyunda Oliy Kengash yig'ilishi chaqirilib, «Mustaqillik Deklaratsiya»si qabul qilindi. Bu hujjatning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, u o'zbek davlatchiligi tarixidagi birinchi tinch yo'l bilan o'z taqdirini o'zi

¹⁰ Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M.Abdullaev, M.Abdullaeva, F.Abdullaeva, T.Abdurazzotsova va boshq.; R.Ro'ziev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri / — T.: «Sharq», 2006., 23 bet

belgilash huquqi to'g'risidagi hujjat edi. Unga ko'ra, o'zbek xalqi davlat boshqaruvida har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini va farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb o'z zimmasiga olgan holda, xalqaro huquq qoidalariga asoslanib o'zining «Mustaqillik Deklaratsiya»sini e'lon qildi. Va bundan buyon

O'zbekiston o'zining tashqi munosabatlarida, davlat hokimiyati masalalarini hal etishda tanho hokimligini, uning chegaralari va hududi daxlsiz ekanligi, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z nomini, davlat ramzlarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etishi va demokratik huquqiy davlat tashkil topganligini butun dunyoga ma'lum qildi¹¹.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy yangilanish istiqbollari rejalarini belgilab berdi. Batamom mustaqillikni qo'lga kiritish uchun ma'lum bir vaqt talab qilinar edi. Chunki Sobiq Ittifoq markazida bunga qarshi juda katta kuchlar tayyor bo'lib turar edi. Mana shunday og'ir bir vaziyatda: «taqdir I.A.Karimov zimmasiga jamiyatning murakkab ichki va tashqi siyosiy sharoitlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va davlat huquqi masalalarini hal qilishga da'vat etilgan, uning qayta o'zgartiruvchisi bo'lishdek nihoyatda og'ir vazifani yukladi. SHunday vaziyatda ham I.A.Karimov o'zini buyuk rahbar sifatida ko'rsatdi.»¹²

Davlat va jamiyat hayotidagi muammolarni tezkorlik bilan hal etish kechiktirib bo'lmas ahamiyatga ega edi. Chunki o'sha vaqtlarda SSSRning taqdiri hal bo'layotgan edi. «markaz» rahbarlari xalqni har xil siyosiy yo'llar va kuch bilan qo'rqitib, Ittifoqni saqlab qolishga harakat qilayotgan edilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi, Ittifoqdagi vaziyatni oldindan ko'ra bilganligi va unga to'g'ri baho bera olganligi, shunda ko'rinadiki, SSSR tarkibiga kiritilgan respublikalar ichida birinchilardan bo'lib u 1990 yil 20 iyunda «O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi»ni qabul qildi. O'sha davrda Ittifoqni

¹¹ Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M.Abdullaev, M.Abdul-laeva, F.Abdullaeva, T.Abdurazzotsova va boshq.; R.Ro'ziev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri / — T.: «SHarq», 2006. 24 bet

¹² Sh.Z.O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. T., «Adolat», 1994 y. 12-bet

tish-tirnog'i bilan saqlab qolishga intilayotgan qora kuchlar milliy nizolarni avj oldirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solgan. Buning misoli sifatida Farg'ona bilan Oshdagi voqealarni keltirishimiz mumkin¹³.

Shunga qaramasdan 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasi chaqirilib, «Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonot»i e'lon qilindi: «O'tmishdan saboq chiqarib Ittifoqning siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib, xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab, shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o'rtasida chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatni bayon etib, millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar, respublika hududida yashovchi har biri kishining munosib hayot kechirishini sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etishga intilib, «Mustaqillik Deklaratsiya»sini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi»¹⁴.

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining «Mustaqillik Deklaratsiyasi»ga va «Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti»ga asoslanib, «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qildi. Ushbu qonun O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishganligini uzil-kesil mustahkamladi. Unda, jumladan «O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil demokratik davlatdir» deyiladi. Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi xalqining severenligi, davlat hokimiyati uning xohish-irodasiga muvofiq vakillik organlari tizimi orqali amalga oshirilishi, hududi va chegaralari daxlsiz va bo'linmasligi, u O'zbekiston xalqining roziligisiz

¹³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh /A.A.Azizxo'jaev, F.Abdumajidov, M.AAxmadshaeva va boshq.; Mas'ul muharrir A.A.Azizxo'jaev; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. — T.: 2008. 56 bet

¹⁴ Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti. Xalq so'zi. 1991 yil 2 sentabr.

o'zgartirilishi mumkin emasligi prinsiplari mustahkamlandi. Shuningdek, davlat hokimiyati idoralarining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tartibiga asoslanishi belgilab berildi. O'zbekiston Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil xizmatni tashkil etish mustaqil davlatning asosiy belgisi sifatidagi huquqi ekanligi ko'rsatildi. Uning hududidagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklar umummilliy boylik ekanligi, ishlab chiqarish vositalari va boshqa noishlab chiqarish fondlari, transport, aloqa va energetika tizimlari respublika mulkidir, deb mustahkamlandi. Dastlabki bozor munosabatlarini rivojlantirishda mulk shakllari bundan buyon to'liq takomillashtirilishi va buning tegishli qonunlar asosida kafolatlanishi belgilab berildi. Chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari, muxtor vakillar bilan ayriboshlash, xalqaro shartnomalar tuzish, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish uning ajralmas huquqidir deb ko'rsatildi. SHular bilan birga, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishda inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq, inson qadr-qimmatini ulug'lanishini doimo nazarda tutishini, o'z taraqqiyot yo'lini, o'z davlat ramzlari va davlat tilini o'zi belgilashini deb e'lon qildi.

“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi dunyoga kelishiga asosan ikkita omil sabab bo'ldi. Shulardan biri jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo'li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlarga muvofiq ravishda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi bo'ldi... O'zbekistonning davlat mustaqilligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilinishini taqozo etgan ikkinchi omil bo'ldi¹⁵”.

Respublikaning yangi Konstitutsiyasini ishlab-chiqish zurligi to'g'risidagi g'oya XII-chaqiriq Oliy Kengashning 1990 yil martida bo'lib o'tgan birinchi sessiyasidayoq yangragan edi. Oliy Kengashning 1990 yil iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasi respublika Prezidenti I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasini tashkil etdi. Komissiya tarkibiga viloyatlar,

¹⁵ Sh.Z.O'razaev. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. T.: «Adolat», 1994 y. 7-bet.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakillari, xo‘jaliklar, korxonalarining rahbarlari, davlat va jamoat idoralari rahbarlari, olimlar va xalq xo‘jaligi mutaxassislari kirdi. Komissiya a‘zosi bo‘lgan akademik Sh.Z.O‘razaevning «Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi» nomli risolasida quyidagilar bayon qilingan: ...Shunday qilib, Prezident I.A.Karimovning zimmasida ikkita eng muhim muammoni hal etish vazifasi turgan edi. Bu respublikaning davlat mustaqilligini ta‘minlash va uning Konstitutsiyasini qabul qilishdir. Mazkur vazifalar kechiktirib bo‘lmas, birinchi darajali mazmun kasb etib turgan ijtimoiy muammolarni hal etishga e‘tiborni susaytirmagan holda amalga oshirilishi lozim edi.

Davlat mustaqilligining O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilganligi butun bir davr mazmuniga ega voqealarni o‘z ichiga olib, bunda Prezident davlat faoliyatining gultoji hisoblanadi. 1991 yil 12 aprelda I.A.Karimov boshchiligida Konstitutsiya komissiyasining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishga tayyorgarlik sohasidagi butun ishni markazlashtirib turish maqsadida Konstitutsiya komissiyasi a‘zolaridan hamda taniqli olimlar va mutaxassislardan 32 kishidan iborat ishchi guruhi tuzildi. Uning tarkibiga Oliy Kengashning qator qo‘mitalarining, vazirliklar, prokuratura, sud organlarining rahbarlari, olimlar, Respublika Prezidenti devoni va Oliy Kengash idorasining mas‘ul hodimlari kirdilar.

Konstitutsiya komissiyasining raisi ishchi guruhi oldiga aniq vazifa qo‘ydi: jahon tajribasi o‘rganilsin, boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlari asosida tushunarli siyosiy va yuridik hujjat yaratilsin.

Konstitutsiya bu muhobatli asar, butun qonunchilikning umurtqa pog‘anasi, qanday bo‘lishi lozimligini oldindan bilmay turib, uning Konstitutsiya komissiyasining topshirig‘iga binoan, ishchi guruhi, eng avvalo bo‘lajak Konstitutsiyaning kontseptsiyasini ishlab chiqishga kirishdi. Uchta kontseptsiya tayyorlandi. Falsafa va huquq institutining kontseptsiyasi (U Fanlar akademiyasi rayosati tomonidan muxokama qilindi va tasdiqlandi). Siyosatshunoslik instituti kontseptsiyasi va Prezident devonining davlat sho‘basi tayyorlagan kontseptsiya.

Ishchi komissiyasining bir guruh a'zolari bu kontseptsiyalarning g'oyalarini umumlashtirib, ulardan bitta asos ishlab chiqdilar. So'ngra Konstitutsiya komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan ana shu kontseptsiya asosida ish boshlab yuborildi.

Loyihaning 158 moddadan iborat dastlabki varianti 1991 yil noyabrgacha tayyorlab berildi. I.A.Karimov bu loyiha bilan tanishib chiqib, kam ish qilinganligi to'g'risida gapirdi va yo'llanma berib, bo'lg'usi loyihaning shakl-tamoyillariga oydinlik kiritib berdi.

Loyihaning ikkinchi ishchi varianti 149-moddadan iborat bo'ldi. Respublika Prezidenti yana qo'lga qalam olib, matnni yaxshilab ko'rib chiqdi. Shu tariqa Konstitutsiya komissiya raisining nigohidan o'tgach, loyiha lo'nda va ifodali bo'lib bordi.

Uchinchi qilingan variant 137-moddani tashkil qilar edi. Matbuotda e'lon qilinishi oldidan yana bir bor diqqat bilan o'rganilib, 127-moddadan iborat tartibda, mazmundor qilib tuzildi. Konstitutsiya komissiyasining qarori bilan loyiha 1992 yil 26 sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muhokamasi barcha mehnat jamoalarida, korxonalar, o'quv yurtlarida, idoralar va vazirliklarda, tumanlar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi faollarining yig'ilishlarida, matbuotda, televideniya va radioda, xalq demokratik partiyasining Markaziy Kengashlari va mahalliy tashkilotlarda, kasaba uyushmalari hamda xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlarida, ijodiy uyushmalarda, olimlarning birlashmalarida va boshqa tashkilotlarda bo'lib o'tdi.

Konstitutsiya komissiyasiga kelgan fikrlar, taklif va mulohazalarni hisobga olgan holda muhokamani davom ettirish uchun 1992 yil 21 noyabrda yana bir bor matbuotda e'lon qilindi. Respublika fuqarolari loyihaga kiritilgan o'zgartirishlar va aniqliklar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

«Yangi Konstitutsiyamizning ijobiy jihatlari, ya'ni tomonlari, avvalgi Konstitutsiyalardan farqlari nimalardan iborat?» Avvalombor bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiyki dunyoviy ne'matlar

orasida eng ulug‘I inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosida «fuqaro-jamiat-davlat» o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar oqimida huquqiy yechimni topishga intildik.

Loyiha inson huquqlari va davlat mustaqilligi g‘oyalariga sodoqat, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglash, o‘zbek davlatchiligining tajribasiga tayanish, demokratiya va qonuniylikni hurmatlash, xalqaro huquqning jahonda e’tirof etilgan qoidalarini tan olish, O‘zbekiston fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlash, insonparvar huquqiy jamiyat barpo etish va nihoyat, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatlikni kafolatlash kabi olijanob maqsadlarni ko‘zladi»¹⁶.

Shunday qilib, Konstitutsiya loyihasi matbuotda ikki marta e’lon qilindi va umumxalq muhokamasidan o‘tdi. Buning yakunlari bo‘yicha komissiya yana bir bor loyihani ko‘rib chiqib Oliy Kengash sessiyasida ko‘rib chiqishga tavsiya etdi. Loyiha Oliy Kengashning sessiyasida moddama-modda muhokama qilinib uzoq tortishuvlar, xilma-xil fikrlar bildirilgan holda qabul qilindi.

«Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir. Shu ma’noda asosiy qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqish va muhokama etishda butun xalq ishtirok etdi. Bir so‘z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir»¹⁷.

Asosiy qonunimizni baholashda AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa Xavfsizlik va hamkorlik Kengashi kabi nufuzli davlat va xalqaro tashkilotlarning olimlari faol qatnashdilar. Lekin hech kim, hattoki, bizni xush ko‘rmaydigan kishilar ham uning demokratik mohiyatini inkor eta olmadi.¹⁸

O‘zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni o‘zining tuzilishi, mazmuni jihatidan O‘zbekiston tarixida amal qilib kelgan Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. 1990 yil 20 iyunda hali Sobiq Ittifoqi mavjud bo‘lgan davrda, O‘zbekiston o‘z

¹⁶ I.A.Karimov: O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. T., «O‘zbekiston» 1992, 36-37 betlar.

¹⁷ I.A.Karimov: «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». 93-bet.T., «O‘zbekiston», 1996. 46 bet

¹⁸ I.A.Karimov: «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». 93-bet.T., «O‘zbekiston», 1996. 51 bet

Mustaqilligini dunyoga ma'lum qilib, Konstitutsiyaviy islohotlarni boshlab yuborgan edi. 1978 yilgi O'zSSR Konstitutsiyasiga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi. Chunki, bu qonun zamon talablariga javob bermay qolgan edi Respublikaning yangicha yashashga bo'lgan xohishini bo'g'ib, turar edi. O'ta mafkuralashgan bu Konstitutsiyaga vaqtincha qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, yangi Asosiy qonun loyihasini yaratishga kirishildi. **Bu jarayon ya'ni uning loyihasi ustida ikki yil davomida ishladik, degan, edi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi».**

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI-sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiyasi mustaqil O'zbekiston demokratik suveren davlatining birinchi Konstitutsiyasi bo'ldi, mustaqil davlat omillaridan kelib chiqib yaratilganligi bu Konstitutsiyaning o'ziga xos hususiyati deb hisoblash lozim. Dastlabki, moddasidan tortib to oxirgi 128 moddasigacha u mustaqillik g'oyasi bilan sug'orilgan.¹⁹

«Biz so'nggi yetmish yil ichida davlatga qaramlik va sig'inish holatida yashadik, mamlakatning undagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblab keldik. Ana shu masalada ham Konstitutsiyada tub burilish yasalgan. Ya'ni «davlat uning idoralari va mansabdor shaxslar jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'uldirlar». Sobiq totalitar davlat sharoitida bunday fikrni hech kim hayoliga ham keltira olmasdi. Endilikda inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi»²⁰.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy xususiyatlarini, u tartibga soladigan muhim yo'nalishlari bo'yicha o'rganishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, har qanday davlat o'zida o'rnatilgan tartib-qoidalarni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan belgilab o'z hokimiyatini amalga oshiradi. Shuning uchun ham uning Asosiy qonun sifatida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarini,

¹⁹ I.A.Karimov: «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» T., «O'zbekiston» 1992, 37-bet.

²⁰ I.A.Karimov: «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» T., «O'zbekiston» 1992, 38-bet.

milliylik ruhi bilan sugʻorilib yaratildi:

Siyosiy yoʻnalishi; Oʻzbekistonning mustaqil demokratik respublika ekanligi, hokimiyatni amalga oshirishda, xalqning yakkahokimligi taʼmilanganligi, uning hududida birorta qoida uning roziligisiz oʻrnatilmasligi, oʻzga davlatlar bilan xalqaro huquq normalari asosida munosabat yuritishi belgilangan:

Ijtimoiy munosabatlarda; hamma demokratik davlatlar hisoblangan, erkin millatlar jamiyatlarida boʻlgani kabi, oʻzbeklar yurtida ham bunday jamiyatni tuzilishi, umuminsoniy qadriyatlar millatlarning qonun oldida tengligi, davlat oʻzining har bir fuqarosi uchun xizmat qilishi, shaxs davlat va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro munosobatlarga asoslanadi.

«Avvalambor bu Konstitutsiya oʻzining tub mohiyati, falsafasi, gʻoyasiga koʻra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yoʻq. Jamiyki dunyoviy neʼmatlar orasida eng ulugʻi inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda “fuqaro – jamiyat - davlat” oʻrtasidagi oʻzaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik»²¹.

Iqtisodiy yoʻnalishida; davlatning ishlab chiqish qurollari va uning neʼmatlari qay asoslarda yaratilishi, taqsimlanishi, mulk shakllari, egalik qilishning turlari mujassamlashgan. Shuningdek uni amalga oshiruvchi davlat organlari, korxonalar va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy kafolatlari belgilangan.

Maʼnaviy kamol topishida; davlat hokimiyatini amalga oshirishda uning kelib chiqishi, milliyligi, anʼanalariga qatʼiy rioya etilishi taʼminlanadi, tarixiy davlat boshqaruviga, oʻtgan ulugʻ ota-bobolar ruhiyatiga tayangan holda, inson uchun eng muhim boʻlgan erkinlik gʻoyalarini ulugʻlantiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mana shu yuqorida koʻrsatib oʻtilgan omillarga asoslanganligi, uning kelajak avlodlar uchun umrbod xizmat qilishini mustahkamladi.

Davlatimizning vijdoni hisoblangan bu hujjat, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari asosida yaratilgan, unda sunʼiylik yoʻq, bu uning eng muhim xususiyati

²¹ I.A.Karimov: «Oʻzbekiston kelajagi buyuk davlat» T., «Oʻzbekiston» 1992, 37-bet.

hisoblanadi. Yana bir muhim xususiyati, boshqa bir davlat tuzumiga o'tishga yo'l qo'ymaydi. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hokimiyat va muholifat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni asosida kelib chiqishi ehtimoli bo'lgan barcha masalalarni joy-joyiga qo'yib berdi»²².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7, 10, 12, 29, 31, 57, 61-moddalarida Konstitutsiyaviy tuzumni, o'zbeklarning davlatini har qanday yo'llar bilan o'zgartirish mumkin emasligi, faqat xalqning hohishi va irodasi bilan har qanday davlat boshqaruvini o'rnatish mumkin ekanligi belgilangan.

Masalan: Konstitutsiyaning 7-moddasida shunday deyiladi: «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir.» O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.²³

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi, muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Shuningdek, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga qo'yilishi (referendumda) mustahkamlangan²⁴.

Konstitutsiyaviy tuzum-insoniyat ijtimoiy turmushining buyuk g'alabasi, umum e'tirof etgan hayot shakli hisoblanadi²⁵.

O'zbekiston Konstitutsiyasi uning xalqi erishgan huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyatini tashkil etishdagi o'z xohish istaklarini qonuniy tartibda rasmiylashtirib, mustahkamladi. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun e'lon qilingan kundan boshlab to yangi Konstitutsiya qabul qilingunga qadar 15 oy vaqt o'tdi, ana shu davr ichida davlat

²² Sh.Z.O'razaev: «Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi», T., «Adolat» 1994, 36-bet.

²³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh/'AA.Azizxo'jaev, F.Abdumaji-dov, M.AAxmadshaeva va boshq.; Mas'ul muharrir A.A.Azizxo'jaev; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. — T.: 2008. 56 bet

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasi T., «O'zbekiston» 2003.

²⁵ SH.Z.O'razaev: «Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi», T., «Adolat» 1994 yil 36-bet.

boshqaruvini qayta tashkil etishda g'oyat katta amaliy ishlar tajribasi to'plandi. Unda yashovchi xalqlarning yangicha yashashga va o'z davlat tuzumini barpo qilishga bo'lgan intilishlari va ularning huquq va erkinliklarini rivojlantirishning eng muhim kafolati ekanligi unda mustahkamlab qo'yildi. Shu davr mobaynida demokratik ijtimoiy va davlat tuzumining asoslari, oliy va mahalliy davlat hokimiyati va idora organlarining tizimi tarkib topdi, umuminsoniy demokratiya prinsiplari o'rnatildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari maromiga etkazildi. Bu prinsiplar xalq ommasining ham mamlakat ichida, ham butun jahonda mustaqillik uchun olib borgan kurashlari natijasini o'zida mujassamlashtirdi. Shu tariqa, mustaqil O'zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi hamda faoliyati prinsiplarini va boshqa ijtimoiy munosabatlarni belgilab beradigan Konstitutsiya qabul qilish zaruriyati paydo bo'ldi.

Agar amaldagi Konstitutsiya o'z mohiyati talablariga javob bermay qo'ysa, konstitutsiyaviy islohot uchun zarurat tug'iladi. O'zbekistonning 1978 yilgi Konstitutsiyasi ham davlatimizning XX asrning so'nggi o'n yilligidagi maqomiga, shaxs bilan davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xalqaro huquq talab va me'yorlariga javob bermay qo'ygan edi. Chunki u jahon konstitutsiyaviy amaliyotida e'tirof etilgan va Konstitutsiyaga qo'yiladigan talablarga javob bermay qolgan edi. U o'zining markscha va lenincha g'oyalari asosida o'ta mafkuralashtirilganligi, siyosiy chaqiriq va balandparvoz iboralar bilan to'lib-toshganligi bilan ajralib turar edi. Umuman, jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari va istiqloq yo'llarini o'zida aks ettirmas edi. Shuning uchun ham Sobiq Ittifoqda birinchi bo'lib 1990 yilning iyunida Respublika Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida yangi Asosiy Qonun loyihasini tayyorlash uchun 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy Komissiya tuzildi.

Yangi Asosiy Qonun loyihasini tayyorlash faol amaliy konstitutsiyaviy islohot jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda olib borildi. 1990-1992 yillarda O'zbekistonning 1978 yilgi Konstitutsiyasiga 100 dan ortiq o'ta muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bular jumlasiga, birinchidan, siyosiy sohada: prezidentlik boshqaruvi va

yuqoridan to quyigacha tubdan yangi ijro etish hokimiyati tizimini ta'sis etish, konstitutsiyaviy nazoratni joriy qilish, saylov tizimi va sudlarni saylashdagi o'zgartirishlar, bir partiyalikdan ko'p partiyaviylikka o'tishga qaratilgan qo'shimchalar kiradi.

Ikkinchidan, iqtisodiy sohada: yangi jamiyatning iqtisodiy asoslarini davlat va kolxoz-kooperativ mulkchiligi emas, balki bozor munosabatlari sari ijtimoiy jihatlari yo'naltirilgan turli mulkchilik shakllari va ularning huquqiy tengligi tashkil etishi haqidagi konstitutsiyaviy qoida o'rnatildi.

Uchinchidan, ma'naviyat sohasida: yagona hukmron marksizm-leninizm mafkurasidan va faqat sinfiylikka asoslanishdan voz kechilib, umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, ko'p fikrlilik, vijdon erkinligi va boshqa shaxsiy huquqlarning qonuniy amaliy e'tirof etilishidir.

Bu sohalardagi har bir konstitutsiyaviy o'zgartirish hayot sinovidan o'tdi. Shuning uchun ham Konstitutsiyaviy komissiya taraqqiyotimizning talablariga javob beradigan, hayot sinovlaridan o'tgan, 1990-1991 yillarda joriy qilingan qator yangi konstitutsiyaviy qoidalarni Asosiy Qonun loyihasiga kiritdi.

Jamiyat siyosiy va huquqiy tizimini tubdan o'zgartirishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan konstitutsiyaviy islohot bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchidan, agar ilgarilari qonunchilikni o'zgartirish odatda yangi Konstitutsiyani qabul qilishdan boshlanib, keyin tarmoq joriy qonunlarini asta-sekin o'z ichiga ola borsa, endilikda u butunlay boshqacha amalga oshirildi. Garchi muayyan o'zaro bog'liqlik shubhasiz saqlanib qolgan bo'lsa Konstitutsiya va amal qilayotgan qonunlarga kiritilayotgan tuzatishlar bilan qo'shimchalar o'rtasidagi ilgarigidek qat'iy bog'liqlik yo'q edi. Shu jihatdan olib qaralganda Konstitutsiyaning qabul qilinishi butun huquqiy islohotning eng yuqori nuqtasi bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchidan, agar ilgarigi ikki Konstitutsiya islohoti vaqtida (1936-1937 va 1977 –1978 yillar) respublikaning Asosiy Qonunini biron-bir jiddiy muqobil yechimni istisno etgan holda SSSR Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirish ularning asosiy mazmunini tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu printsip hech qanday ahamiyatga ega bo'lmadi. Chunki O'zbekiston suveren davlat sifatida o'zining Konstitutsiyasini

o'zi mustaqil ishlab chiqdi. Bunda mezon bo'lib, milliy huquqiy meros, xalqaro huquq me'yorlari va umumbashariy qadriyatlar xizmat qildi.

Uchinchi, O'zbekistondagi bir qator konstitutsiyaviy o'zgarishlar sobiq Ittifoqdagi o'zgarishlardan ham oldin amalga oshirildi. Chunonchi, Prezidentlik lavozimi, Ministrlar Soveti o'rniga Vazirlar Mahkamasi birinchi bo'lib O'zbekistonda ta'sis etilib, ijro etuvchi hokimiyatning tizimi bevosita respublika Prezidentiga bo'ysundirildi. Keyinchalik sobiq Ittifoqda ham, bir qator respublikalarda ham, birinchi navbatda O'rta Osiyo respublikalarida bizning konstitutsiyaviy tajribamiz hisobga olindi va e'tirof etildi.

To'rtinchidan, konstitutsiyaviy yo'l bilan tartibga solish ko'lamining kengayishi jarayoni ko'zga tashlandi. Bunga o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishini Konstitutsiya yo'li bilan mustahkamlash, Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasini ta'sis etish, O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan respublika prokurorining tayinlanishi va hokozolar misol bo'ladi.

Bu barcha muhim konstitutsiyaviy o'zgartirishlar O'zbekiston hali sobiq Ittifoq tarkibida ekanligida amalga oshirildi. Bular konstitutsiyaviy islohotning birinchi bosqichi mazmunini tashkil etdi.

Konstitutsiyaviy islohotning ikkinchi bosqichi 31 avgust 1991 yildan to 8 dekabr 1992 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun bilan belgilanadi. Bu hajmi bo'yicha 17 moddadan tashkil topgan, nihoyatda ixcham va kichik hujjat O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida qo'ygan ilk qadamlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asosini tashkil etdi. O'z mazmun-mohiyati bo'yicha uni «Muvaqqat kichik Konstitutsiya» deb ta'riflash mumkin.

Ikkinchi bosqich mobaynida Konstitutsiya loyihasi tayyorlanib, umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi. Loyiha ikki yarim oy mobaynida matbuotda, barcha ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar faollarining yig'ilishlarida, ming-minglab mehnat jamoalarida chuqur va atroflicha muhokama qilindi. Mamlakatning chinakam

mustaqilligini, uning ijtimoiy va davlat qurilishidagi real demokratizmni, uning ijtimoiy-siyosiy yo'lini belgilashda umuminsoniy qadriyatlarning shak-shubhasiz ustuvorligini tasdiqlovchi bu Konstitutsiya – mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiya loyihasining nihoyatda ulkan, chinakam tarixiy ahamiyati muhokama davrida alohida ta'kidlandi.

Ayni vaqtda umumxalq muhokamasi davomida loyihani yaxshilashga doir ko'plab taklif va mulohazalar bildirildi. Konstitutsiya komissiyasining o'zigagina 6 mingdan ortiq taklif va mulohaza tushdi. Tushgan taklif va mulohazalarning hammasi atroflicha puxta o'rganildi hamda loyiha ustidagi ishlarni davom ettirish chog'ida ulardan foydalanildi.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi xalqchil qomusdir. Sababi uning loyihasi ustida, I.A.Karimov ta'kidlaganidek, taxminan ikki yil davomida ishladik. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi²⁶. Asosiy Qomusimizda fuqarolarning ahlligi, xalqimizga xos odamiylik, umuminsoniy qadriyatlarga ixlos kabi yaxshi sifatlar o'z aksini topgan. Yurtimizga xos qardoshlik va do'stlik an'analari, o'zining boy va teran tarixiga ega bo'lishi, xalqlarning o'zaro totuvligi va qo'shnichiligi prinsiplari ham Konstitutsiyamizda muhim o'rin tutadi.

Konstitutsiyamizning yaratilishida, muhokama qilinishida va qabul qilinishida Konstitutsiyaviy komissiyaning Raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning rolini alohida ta'kidlash lozim. U kishi nafaqat Konstitutsiya ishlab chiqish tashabbuskori, nafaqat loyiha tayyorlash ishlariga rahbar, balki Asosiy Qomusning tub mohiyati, falsafasi, asosiy g'oyalarining muallifidir. I.A.Karimov Konstitutsiyaning har bir moddasini aqli va yuragi bilan his etdi, uni pishitdi va takomillashtirdi.²⁷

O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotning va taraqqiyotning uchinchi bosqichi Respublikamizning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan boshlanadi.

²⁶ Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –T.: O'zbekiston, 1992., 36-37 betlar.

²⁷ O'razaev Sh. Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi qanday yaratildi //Inson va demokratiya. – 1993. –2son, 8-bet.

Chunki, Konstitutsiya Asosiy Qomus sifatida barcha qonunchilikning, huquqiy tizimimizning o'zagidir. Mustaqil Konstitutsiyamiz ko'zi-nazari bilan barcha qonunlarimiz boshqatdan ko'rib chiqildi.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi

Asosiy Qonun sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar.²⁸

1.3 Konstitutsiyaning yuridik tabiati, asosiy funksiyalari va barqarorligi

Konstitutsiyaning yuridik xususiyatlari va funksiyalarini ta'riflash muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSh Konstitutsiyasi va «ikkinchi avlod» konstitutsiyalari o'zining siyosiy shior shaklidagi qoidalarining nisbatan kamligi va anchagina yuridik mazmuni bilan ajralib turadi. Konstitutsiyaga barcha belgilarga ega bo'lgan yuridik hujjat sifatida qarash-hozirgi konstitutsionalizmning muhim jihatidir.

Konstitutsiyaning asosiy mazmuni shior shaklidagi va baholovchi qoidalarning keskin kamaytirilganligi bilan ham ajralib turadi (asosan kirish qismlarida «umumiy qoidalar»).

Asosiy qonunning bir-biri bilan o'zaro bog'liq bir qancha funksiyalarini ko'rsatish mumkin. Konstitutsiyaning siyosiy-g'oyaviy mazmuni jamiyatning ijtimoiy tuzilishini tartibga soladi hamda siyosiy hayotni va kurashni muayyan huquqiy doiraga solishni maqsad qilib qo'yadi.

Konstitutsiya tashkiliy funksiyasining ma'nosi-davlat institutlari tuzilishini va davlat organlari faoliyatini millatning birligini hamda kelajak avlodga demokratik jamiyatni tashkil etish va ular faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini tartibga solishdan iborat. Agar konstitutsiyaning mazmun va mohiyati taraqqiyot darajasining ko'p yillik rejalarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, jamiyatda muayyan qadriyatlarni qaror toptirish maqsadida ma'naviy sohaga ta'sir etishga qaratilgan bo'lsa, konstitutsiyaning yuridik funksiyasi uning amal qilayotgan tizim asosi sifatidagi

²⁸ Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –T.: O'zbekiston, 1992., 44 bet

o'rnini aks ettiradi.

Shu munosabat bilan, konstitutsiya yuridik funktsiyalarining ichida eng muhimlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, konstitutsiyaviy qoidalar amaldagi huquqning oliy moddiy mezonidir; huquq sohasida mavjud bo'lgan va paydo bo'ladigan barcha qoidalar konstitutsiyaviy qoidalarga mos kelishi shart;

ikkinchidan, konstitutsiya matnida huquqning asosiy prinsiplari ko'rsatilishi;

uchinchidan, amaldagi huquq manbalari tizimining konstitutsiyaviy jihatdan ta'riflanishi;

to'rtinchidan, konstitutsiyaviy normalarning o'zi asosan bevosita amal qiladigan qoidalar, ya'ni ular sudlar va yurisdikatsiya maqomiga ega bo'lgan organlar tomonidan bajarilishi kerak. Konstitutsiyaning yuridik tabiati va funktsiyalari uning normativ hujjatlar tizimida ustun mavqega egaligida yorqin ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimiz Asosiy qonuni bo'lib, bevosita amal qiladigan yuridik qoidalarni mazmuni bo'yicha umumiyashtirib beradi va shior tarzidagi qoidalarni iloji boricha kam ifodalaydi.

Konstitutsiyaning barqarorligi siyosiy madaniyat va ma'naviyatning alohida turiga bog'liq. Davlatning va qonunning fuqarolar va jamiyat hayotiga aralashuvi bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi boshqarish mexanizmlari va boshqa qudratli kuchlari bilan cheklangan. Bu AQShning o'ziga xos jihatidir.

Fransiya esa ana shu 200 yil davomida boshqa o'ziga xos qonuniyatlari bo'yicha yashadi. Konstitutsiyadagi nisbatan tez-tez bo'ladigan o'zgartishlar ham ana shundan. Bunday vaziyat faqat Fransiyada emas. Masalan, 1950 yildan boshlab Hindiston Konstitutsiyasida dastlabki matnning 2/3 qismi o'zgarib ketgan.

GFRning Asosiy qonunini ham ancha barqaror deb e'tirof etish mumkin: unga o'zgartishlar kiritish uchun Bundestag va Bundesratning uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi ovoz berishi kifoya qiladi. Shu bois, Farbiy Germaniyaning Konstitutsiyasi boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda ko'proq (35 marta) o'zgartirilgan, ammo ushbu mamlakatdagi vaziyat hamma tomondan qaraganda eng

barqarordir²⁹.

Ko'plab davlatlarda konstitutsiyaning o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan moddalari belgilab qo'yilgan. Bu boshqaruv shakli, islom madaniyati mamlakatlarida esa davlat dini haqidagi moddalarga tegishli.

Umuman xorijiy mamlakatlarning tajribasi ancha «qattiq» konstitutsiyaning afzalligidan dalolat bermoqda. Barqarorlik, o'z navbatida, jamiyat oliy normalari va qadriyatlarining ifodasi bo'lmish konstitutsiyaning ma'naviy obro'yini ko'taradi. Konstitutsiya qoidalarining mufassallashtirilishi, unga ayni paytdagina muhim bo'lgan mavhum qoidalarning kiritilishi uning doimiy ravishda qayta ko'rilishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li Konstitutsiyaga asoslangandir. Bizning konstitutsiyaviy siyosatimiz o'z milliy davlatchiligimizni, iqtisodiyotimizni va ma'anviyatimizni kamolot cho'qqilariga olib chiqishga qaratilgan.

O'zbekistonda suveren demokratik davlat qurish va huquqiy islohotlar konstitutsiyaviy besh tamoyilga – prinsipga asoslangan. Bu tamoyillar Prezidentimiz nutqlarida, risolalarida atroflicha ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Bu - birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosatning ta'siri ostida bo'lmasligi, ya'ni biron bir mafkuraga bo'ysundirilmasligi kerak. Bu esa iqtisod hamisha siyosatdan ustun turmog'i kerak, deganidir. Iqtisodni mafkura ta'siridan chiqarmoq lozim. Etmish yil mobaynida iqtisodiyot g'oyat siyosiyashtirib yuborilgan edi. Soxta sotsialistik iqtisodiy nazariyaga singib ketgan aqidaparastlik, dogmatizm uzoq yillar davomida hozirgi zamon ilmiy tafakkurining cho'qqisi deb ko'rsatib kelindi.

Ikkinchidan, iqtisodni boshqarishda, ayniqsa, bozor iqtisodiga o'tilayotganda, davlat boshqaruv jilovini qo'ldan chiqarmasligi kerak. Faqat davlatgina, qonuniy asosda saylangan hokimiyatgina asosiy islohotchi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, davlat to'rachilikka, byurokratizmga, tarkib topgan psixologiyaga barham berishi,

²⁹ Rahmonov A.N. O'zbekiston va Germaniyada parlamentning hukumatga ishonchsizlik bildirish huquqi (qiyosiy tahlil). «O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish-ning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va ma'naviy omillari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. — T.: «Iqtisodiyot», 2011. 17 bet

bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi ijtimoiy larzalarga yo‘l qo‘ymaydigan oqilona va izchil siyosat yuritishi lozim. Faqat shundagina xalq hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish, islohot yo‘lidan ilgarilab borish va jamiyatning butun faoliyati sohasini yangilash mumkin.

Mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirgan ko‘pgina mamlakatlarning tajribasi davlat hamisha tub o‘zgarishlarning peshqadami bo‘lib kelganligidan dalolat beradi. Bir tomondan, mamlakatni va uning aholisini himoya qilgan, ikkinchi tomondan - odamlarni, tashkiliy tuzilishlarni islohotlarga tayyorlagan. Davlat bamisoli ularni yangicha yashashga majbur etgan va rag‘batlantirgan.

Eski sistema tayanchlari yemirilgan va yangisi endigina qurila boshlagan yosh, suveren davlat tarixidagi murakkab bir davrda tartibsizlik va buzg‘unchilikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday tartibsizlik va buzg‘unchilik esa hokimiyat zaif va uquvsiz bo‘lgan joyda paydo bo‘ladi. Totalitar tuzumdan chinakam suverenitetga o‘tish davrida esa garchi aqlli va iste’dodli bo‘lsa-da, qandaydir akademiklardan va amaliyotchilardan tuzilgan komanda emas, balki davlat asosiy islohotchi bo‘lib chiqadi. Eski jamiyat ketib, o‘rniga yangisi qurilayotgan o‘tish davrida shu davlat boshqaruv jilovini qo‘ldan chiqarmasligi kerak.

Qonuniy ravishda saylangan kuchli hokimiyat O‘zbekiston alohida o‘rin egallab turgan O‘rta Osiy mintaqasidagi barqarorlikning kafilidir. O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqi ishonadigan kuchli davlat hokimiyatigina osoyishtalikni saqlay oladi, respublikni taraqqiyot yo‘liga olib chiqadi.

Tinchlikni, barqarorlikni, fuqarolar va millatlar totuvligini saqlash davlat tuzish va iqtisodiyotni zamonaviylashtirish vazifalarini hal qilishning eng muhim shartidir. Bu vazifalarni hal qilish uchun esa kuchli hokimiyat kerak. Ko‘pdan-ko‘p qiyinchiliklarga qaramay, O‘zbekiston sobiq Ittifoqning eng barqaror respublikalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, Konstitutsiya va qonunlarga qat’iy rioya qilish. Bu huquqiy davlat tuzishning zarur shartidir.

O‘zbekistonning asosiy qonuni- Konstitutsiyadir. Chet mamlakatlarning va xalqaro tashkilotlarning mutaxassislari bizning Konstitutsiyamizni, qabul qilingan

qonunlarimizni eng ilg'or, progressiv qonunlar sirasiga dadil kiritish mumkin, deb tasdiqladilar.

Har bir yosh davlatda chinakam demokratik Konstitutsiya va qonunlarga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Birinchi navbatda barcha fuqarolarning ularga qat'iy og'ishmay rioya etishlariga erishmoq zarur. Bizning maqsad har bir fuqaroning, shaxsi va lavozimidan qat'iy nazar, qonunlarga so'zsiz rioya etishini ta'minlashdir.

Konstitutsiya, Qonun hamma narsadan ustun turmog'i va hamma uchun majburiy bo'lmog'i lozim. Afsuski, bizda Konstitutsiyaga, qonunga nisbatan eng oddiy hurmat hissi tarbiyalanmagan edi. Aholiga huquqiy madaniyatni, Konstitutsiyaning, qonunning harfi va ruhiga hurmat bilan qarashni singdirib borish lozim. Busiz huquqiy davlat qurib bo'lmaydi, inson huquqlari va ozodligini himoya qilib bo'lmaydi. Demak, asosiy narsa Konstitutsiyani, qonunni hurmat qilishdir.

Haqiqiy demokratik davlatda hamma xoh Prezident yoki oddiy fuqaro bo'lsin, xoh kambag'al yoki ishbilarmon bo'lsin, Konstitutsiya va qonunga amal qiladi. Biz turmushning barcha sohalarida Konstitutsiya va qonunning ustunlik qilishiga erishmog'imiz lozim. Fuqarolar ishongan hokimiyat kuchli bo'ladi.

Ishonchning kafolati esa Konstitutsiya va qonunlarga qat'iy rioya etilishidir. Konstitutsiyaviy qonunchilikni va huquq tartibotni qaror toptirishning boshqa jihati ham bor. U mamlakatimizda o'tkazilayotgan demokratik va iqtisodiy islohotlar uchun barqaror huquqiy zamin yaratishdir. Faqat shundagina iqtisodiy o'zgarishlarda sezilarli natijalarga erishish mumkin. O'zbekistonda mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi, korxonalar faoliyatini, tashqi-iqtisodiy bank, tadbirkorlik, birja faoliyati normalarini belgilab beruvchi bir qator qonunlar qabul qilindi. Respublikada korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, aktsiyalashtirish sohasida o'tkazilayotgan tadbirlar huquqiy zaminga qo'yildi.

O'zbekistonda izchil ravishda, bozor iqtisodiyotiga o'tila borgan sari huquqiy institutlar ham shakllanmoqda, bozor munosabatlarini madaniy shaklda joriy etishga imkon beradigan, soxta bozor iqtisodining ildiz otib ketishiga qarshi qaratilgan qonunlar majmui yaratilmoqda. Vazifa faqat xalqaro normalarga mos keladigan

qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishdagina emas, balki ularga soʻzsiz rioya etilishidan ham iboratdir.

Toʻrtinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat yuritmoq kerak. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan birga aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan taʼsirchan tadbirlarni amalga oshirib bormoq darkor. Bu bozor iqtisodiyoti yoʻlidagi eng zarur vazifalar boʻlgan va bundan buyon ham shunday boʻlib qoladi. Demokratik va iqtisodiy islohotlar yoʻlida erishilgan ijodiy siljishlar soʻnggi yillarda respublikada aholining eng muhtoj qatlamlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritilganligidan dalolat beradi.

Oʻzbekistonda demografik yukning eng ogʻiri oila zimmasiga tushmoqda. Butun aholining yarmiga yaqini oʻn olti yoshgacha boʻlgan bolalar va oʻsmirlardir. Ular jismonan baquvvat va oʻqimishli kishilar boʻlib etishmoqlari uchun ularni himoyalash, boqish, tarbiyalash kerak. Respublikada olti-etti jon turadigan oila bir xodimning maoshiga yashaydi.

Biz oldimizga buyuk maqsadni aholining sogʻlom boʻlishini taʼminlash vazifasini qoʻyganmiz. Dunyoda birinchi boʻlib Oʻzbekistonda Sogʻlom avlod uchun ordeni taʼsis etildi. Biz bilamizki, aholi jismoniy, maʼnaviy, moddiy jihatdan sogʻlom boʻlmasa, yaʼni sogʻlom avlodsiz rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqib olish mumkin emas.

Aholining davlat himoyasiga muhtoj boʻlgan boshqa qatlami ham bor bular, yetim-yesirlar, qariyalar, nogironlar, koʻp bolali onalardir. Bugun ularning tirikchiligi qiyinlashib qoldi. SHuning uchun ham davlatning vazifasi kishilar boshiga ochlik va muhtojlik tushishiga yoʻl qoʻymaslikdir. Davlat oʻz aholisini himoya qila olsagina u insonparvar, demokratik, huquqiy davlat boʻladi.

Beshinchidan, bozor iqtisodiga oʻtish shoshma-shosharliksiz, bosqichma-bosqich amalga oshirilmogʻi lozim. Oʻzbekiston oʻz taraqqiyot yoʻlini tanlab olgan, bu yoʻl bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich oʻtishga asoslangan. SHu narsani alohida taʼkidlamogʻi lozimki, tanlab olingan yoʻlning asosiy mazmuni va maqsadi - bu soxta revolyutsion sakrashlarsiz, fojiali oqibatlar va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yoʻl bilan, madaniy ravishda normal taraqqiyotga oʻtishdir.

Bozorga bosqichma-bosqich o'tmoq kerak. Qo'yilgan maqsad sari qadamma-qadam ilgari lab borish lozim. O'n yillar mobaynida ko'pincha zo'ravonlik bilan kishilar miyasiga singdirib kelingan narsani bir lahzada o'zgartirib bo'lmaydi. Tashkiliy, iqtisodiy, moliya, kredit sistemasini o'zgartirish, tegishli huquqiy bazani, bozor infrastrukturasi vujudga keltirish, kadrlar tayyorlash uchun vaqt kerak bo'ladi. Odamlarning o'zlarini jamiyatni yangilash va qayta tuzish zarurligiga ishonmay turib, harakatlantiruvchi kuchlarni, asosiy yo'nalishlarni, dalil-isbotlarni o'zgartirmay turib, islohotlar sari keskin va aniq qadam tashlab bo'lmaydi, yangi jamiyat qurib bo'lmaydi, prinsip jihatdan yangi munosabatlarni joriy etib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish-quruq maqsad emas, balki birinchi navbatda xalq uchun munosib va farovon hayotni ta'minlash vositasidir. Bu yerda Sharq turmush tarzini, psixologiyasini, falsafasini, buyuk islom fanini hisobga olmoq kerak. Bozor bu psixologiyadir. Buni hisobga olmasdan bo'lmaydi. Shuning uchun bizning asosiy vazifamiz hech qanday ijtimoiy larzalarsiz, ochlik-qashshoqlik ko'rmasdan, kishilarga ziyon-zahmat etkazmasdan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga etib kelishdir. Shu ma'noda O'zbekiston o'z yo'lini tanlab olgan va shu yo'ldan bormoqda.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida ikkita asosiy vazifa ustuvor hisoblanadi. Birinchisi - iqtisodiy bazasi ijtimoiy yo'naltirilgan yangi davlatning, yangi tuzumning modelini yaratish.

Ikkinchisi - bozorga o'tishni tashkiliy jihatdan ta'minlash, yangi kadrlar korpusini shakllantirish. Islohotga aloqador kishilar va avvalo, mas'ul xodimlar uning mohiyatini tushunib etgan, respublika va xalq ehtiyojlari to'g'risida o'ylaydigan, islohot kim uchun va nima uchun o'tkazilishini tushungan, haqiqiy vatanparvar bo'lgan taqdirdagina islohotlar yurishib ketadi. Ular maqsad va vazifalarimizni aniq tasavvur etishlari, o'ylab qo'yilgan rejalarni amalga oshirishga layoqatli bo'lishlari kerak.

Biz mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy tuzum va davlat modelini yaratmoqdamiz. O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat. Davlatimizning hamma narsasi: tabiiy boyliklari, serhosil erlari, buyuk daryolari bor. Bu muqaddas erda mehnatsevar,

iste'dodli xalq yashaydi. Bizga tinib-tinchimas, serg'ayrat, ishchan, xalqqa sadoqat bilan xizmat qiladigan, bu modelga hayot bag'ishlaydigan bilimdon, tashabbuskor kishilar kerak.

II-bob. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy taraqqiyot istiqbollari

2.1 Konstitutsiya va siyosiy-huquqiy islohotlar.

O‘zbekiston Respublikasi uchun XXI asr boshida hayotimizning barcha sohalarini Konstitutsiya normalari asosida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida ustuvor vazifalarni aniqlab, yaqin kelgusidagi faoliyatimizning bosh maqsad va mazmunini belgilab olishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisimadagi ma‘ruzalari alohida o‘rin tutadi³⁰.

Ma‘lumki, mustaqillikning o‘tgan qisqa tarixiy davrida mamlakatimiz ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ham tub islohatlar izchil amalga oshirildi. Hur O‘zbekiston erkin demokratik konstitutsiyaviy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etishdek buyuk maqsad sari o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lidan bormoqda. Hayotning o‘zi, jamiyatni demokratlashtirish va yangilashning, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishning o‘zbekcha modelini tanlangan yo‘limiz va tamoyillarimizning to‘g‘ri ekanini ko‘rsatmoqda.

Qisqa fursatda O‘zbekistonda Konstitutsiya zamirida tamomila yangi siyosiy va huquqiy tizim shakllandi. Fuqarolarimizning siyosiy va huquqiy ongi va tafakkurida, dunyoqarashida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Odamlarimizning mustaqilligimizni mustahkamlash borasidagi ezgu niyatlarining qat‘iyligini 2002 yilgi umumxalq referendumini va 2004 yilgi ikki palatali Oliy Majlisga hamda mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovlar yana bir bor tasdiqladi.

Darhaqiqat, odamlarimizda hozirgi zamonning mohiyatini tushunishga intilish, siyosiy va huquqiy islohotlarda faol ishtirok etishga bo‘lgan harakat hissi kuchayib bormoqda.

Shu munosabat bilan jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning hozirgi bosqichdagi asosiy vazifalari va ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish zarurligini

³⁰ Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T., "O‘zbekiston", 2005, 30-93-betlar.

anglab etish xalqning ichki ehtiyojlariga va jamiyatning siyosiy va huquqiy islohotlar muqarrarligini ta'minlashga intilishiga asoslangandir. Faqat konstitutsiyaviy davlat va adolat fuqarolik jamiyati sotsial taraqqiyot va siyosiy barqarorlikni, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi.

Jamiyatni demokratlashtirish deganda nimani tushunish kerak?

Birinchidan, shaxs, jamiyat va davlat tomonidan jahonda umum e'tirof etilgan demokratik-huquqiy qadriyatlarni mamlakat aholisining madaniy-tarixiy tajribasi va ijtimoiy ruhiyatidan kelib chiqqan holda o'zlashtirishning tadrijiy jarayonini.

Ikkinchidan, millat hayoti va faoliyatining barcha ijobiy mexanizmlarini yangilash va konstitutsiyaviy qadriyatlarga moslashtirishni tushunmoqni anglatadi.

Hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish yo'li o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlarning asosiy bog'lovchi bo'g'iniga aylandi.

Hozirgi dunyoda demokratik taraqqiyot qadriyatlari, konstitutsiyaviy tamoyillari va me'yorlari borgan sari har tomonlamalik kasb etib bormoqda, ularning zarurligi va ta'sirchanligi endilikda hech qaerda inkor etilishi mumkin emas. Bunda demokratiya va taraqqiyot sari borishning milliy modellari tobora keng o'rin tutmoqda. O'zbekistonning davlat siyosati va ijtimoiy hayotida demokratik taraqqiyot qadriyatlari, konstitutsiyaviy tamoyillari va me'yorlarining har tomonlamaligi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demokratlashtirishning milliy modellari konstitutsiyaviy taraqqiyotning umume'tirof etilgan me'yorlarini o'z madaniyati va an'analari, xalqning aql-zakovati va muayyan ijtimoiy-tarixiy va siyosiy shart-sharoitlarga asoslagan holda moslashtiradi.

O'zbekistonda demokratlashtirish va yangilashning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish, yangi konstitutsiyaviy tuzumga o'tishning o'zimizga xos va mos modeli. Bu iqtisodiyotda falaj terapiyasidan voz kechishga asoslangan, aholining eng himoyalangan qatlamlarini (kam ta'minlanganlar nogironlar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz qariyalar va talabalarni) maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga

hamda iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlarni o'tkazish borasida jahonda to'plangan ilg'or tajribani O'zbekistonning mavjud sharoitida mustaqil qo'llanishga qaratilgan yo'ldir.

Ikkinchi yo'nalish, siyosiy va huquqiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi. Bu o'tqazilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning izchil va tadrijiy bo'lishini, inson huquqlari va erkinliklarining, ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi demokratik institutlarning huquqiy va iqtisodiy asoslarini barpo etishni, institutsional tuzilmalarni zamonaviylashtirish hamda milliy ma'naviyat va madaniyatni konstitutsiyaviy tamoyillarga moslashtirishni nazarda tutadi.

Uchinchi yo'nalish, Konstitutsiyaviy davlat hokimiyati mexanizmlarini demokratlashtirish. Konstitutsiya asosida hokimiyat tarmoqlari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining bo'linishi amalga oshdi. Davlat apparatining cheksiz hukmronligidan voz kechish va jamiyatdagi turli manfaatlar hamda munosabatlarni muxtasar shaklda ifodalashga davlat etilgan siyosiy institut sifatida demokratik huquqiy konstitutsiyaviy tuzum shakllanmoqda.

To'rtinchi yo'nalish, siyosiy tizimda fuqarolik jamiyatini shakllantirish. Bu inson huquqlarini himoya qiluvchi va jamoatchilik fikrini o'rganuvchi, O'zbekiston uchun mutlaqo yangi demokratik institutlar vujudga kelishi, yangidan tuzilgan siyosiy partiyalarning mustahkamlanishi, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari paydo bo'lishi demakdir.

Fuqarolar jamiyat va davlatni boshqarishda ishtirok etishi, hokimiyatning vakillik organlari ularni qanday boshqarayotgani, bu organlarda ularning manfaatlari qanday ro'yobga chiqarilayotgani haqida axborot olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarni tushunib etishlariga va bu huquqlaridan foydalana olishlariga erishmoq lozim.

Biz bugungi demokratlashtirish jarayonlariga jamiyatimizni erkinlashtirish natijalariga bu yo'lda erishilgan dastlabki bosqich sifatida qaraymiz.

Jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish va yangilash mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lida amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohatlar keng qamrovli va muhim masalalardir. Bu masalalar Konstitutsiya

qoidalarini hayotga izchil tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Buning bir necha sabablari bor.

Birinchi sababi, biz mustaqilligimizning dastlabki yillarida konstitutsiyaviy tuzumni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarni asosan amalga oshirib bo'ldik. Ijtimoiy-siyosiy hayotimizda tub demokratik o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangi konstitutsiyaviy institutlar tizimi shakllandi. O'zbekistonda demokratik konstitutsiyaviy tuzum barpo etildi.

Amalda haqiqiy ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topmoqda. Jamiyat hayotida nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining soni oshib, mavqei o'sib bormoqda. Ular faqat aholi turli qatlamlari va guruhlarining manfaatlarini ifoda etibgina qolmay, balki odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta'sir ko'rsatmoqda.

Ikkinchi sababi, mamlakatimizda izchil o'tkazilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning poydevori bo'lib xizmat qiladigan, ularning ortga qaytmasligini kafolatlaydigan mustahkam konstitutsiyaviy zamin yaratildi. Yangi siyosiy tizimning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari barpo etildi.

Uchinchi sababi, istiqlol yillarida odamlarimizning siyosiy va huquqiy tafakkuri va dunyoqarashi, siyosiy hayotga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Kishilarimiz siyosiy va huquqiy ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlanmoqda. Aholining ijtimoiy-huquqiy faolligi, siyosiy islohotlarni zarurligiga va mamlakatimizning buyuk kelajagiga bo'lgan qat'iy ishonchi oshib bormoqda. Yurtboshimiz iboralari bilan aytganda, Taraqqiyotimizning bugungi bosqichida inson omili jamiyatimizni harakatga keltiruvchi qudratli kuchga aylandi.

To'rtinchi sababi, O'zbekiston butun dunyoda xalqaro huquq va jahon hamjamiyatining teng huquqli sub'ekti sifatida tan olindi va uning bu mavqei mustahkamlanib bormoqda. Biz demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillarini tan olamiz. Bu tamoyillar mustaqilligimiz Qomusi bo'lmish Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan.

Beshinchi sababi, XX asrning oxirida yurtimizda ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida Respublika Prezidenti va Oliy Majlisga hamda mahalliy

kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylovlar xalqimizning jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish borasida o‘tkazilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarni izchil rivojlantirish va yanada chuqurlashtirishga bo‘lgan xohish-istagini yana bir bor yaqqol namoyon qildi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, bizning asosiy va muqaddas vazifamiz odamlarning ana shu ishonch va umidlarini oqlashdir³¹.

Oltinchi sababi, XXI asr boshida biz siyosiy-huquqiy islohotlarimizning usutuvo yo‘nalishlarini belgilab olishimiz zarur. Siyosiy va huquqiy islohotlar borasida erishgan yutuqlarimizni ta’kidlash bilan cheklanib qolmaslik kerak. Avvalo, siyosiy va huquqiy islohotlar yo‘lidagi mavjud muammolar haqida ko‘proq gapirishimiz lozim.

Erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish bu bizning olg‘a intilishimizning kafolati va asosi, u nafaqat iqtisodiy, balki, ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir.

Jamiyatni erkinlashtirish va yangilash borasida, avvalambor, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zarur.

Bu sohada besh yo‘nalishni ko‘rsatish mumkin.

Birinchi yo‘nalish, ijtimoiy taraqqiyotga xalaqit beradigan merosdan qutula borib, O‘zbekistonda xalqning tarixiy merosi va madaniyati sarchashmalaridagi barcha foydali narsalar saqlab qolinmoqda, uning sharqona an’anaviy tafakkur salohiyati hisobga olinmoqda. O‘zbek xalqining boy madaniyatidan, maorif, ta’lim, fan tizimining muayyan yutuqlaridan, shuningdek milliy an’analaridan voz kechmaslik lozim. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining dunyoviy xususiyati, shuningdek, ularning barcha diniy konfessiyalarga chuqur hurmat bilan qarashi erkinlashtirish kafolatlari jumlasiga kiradi.

Ikkinchi yo‘nalish, demokratlashtirishga bosqichma-bosqich o‘tish g‘oyasining strategik ahamiyati nafaqat jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlab qolishdan, balki

³¹ Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiya-tini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. - T., 2011. 14 bet

vujudga kelayotgan fuqarolik jamiyati uchun huquqiy, siyosiy, axborot-ma'rifiy va psixologik shart-sharoit yaratishdan iborat.

Uchinchi yo'nalish, davlat rahbariyati bozor munosabatlariga o'tish borasida tanlangan yo'ning mazmun-mohiyati va to'g'riligini doimo tushuntirib borish mas'uliyatini o'z zimmasiga oldi. Davlat islohotchi vazifasini bajarayapti va fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga ko'ra o'z huquqlaridan foydalanishlarida ularni faol bo'lishga rag'batlantirmoqda. Tan olish kerakki, hozircha mamlakat rahbariyatining o'zi mavjud kamchiliklarning asosiy tanqidchisidir. Biroq jamoatchilik fikri, fuqarolar murojaatlari bunday tanqidga undovchi sabablar bo'lmoqda.

To'rtinchi yo'nalish, aholi barcha ijtimoiy qatlamlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manfaatlar muvozanati, shuningdek millatlararo va konferentsiyalararo (O'zbekistonda 120 dan ziyod milliy jamoalar bo'lib, o'zbeklar aholining salkam 78 foizini tashkil etadi) totuvlik muvozanati tarkib topdi, saqlab turilibdi va rivojlantirilmoqda.

Jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali izchil mexanizmi shakllantirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish, hayotimizning barqaror va mustahkam taraqqiyotining mukammal kafolatidir.

Beshinchi yo'nalish, eng muhimi – muayyan qiyinchiliklarga qaramay, mamlakatni modernizatsiya etish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda islohatlar o'tkazish uchun imkoniyatlar ochmoqda.

2.2 Konstitutsiya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari

Konstitutsiya asosida O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun ehtiyoj bormi?

Bu savolga qat'iy ha deb javob berish mumkin. Bu erda sovet davrida amal qilgan, bitta hukmron siyosiy partiya ko'rsatmalarini bajargan totalitar ma'muriy-buyruqbozlik davlati juda qisqa muddatda isloh qilinayotgan milliy demokratik davlatga aylantirildi. Boshqa ijtimoiy-madaniy va siyosiy-ruhiy sabablar bilan bir

qatorda, demokratik tajriba va uning rivojlangan institutlari yo'qligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishda orqada qolishga sabab bo'ldi. Bunday ahvolni bartaraf etishda asosiy kuch yuksak siyosiy madaniyatli fuqarolar va islohotchi davlatning o'zidir.

O'zbekiston demokratik fuqarolik jamiyatini jadal shakllantirib borishdan manfaatdor³².

Birinchidan, chunki shu asnoda mamlakatning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari olg'a siljishi yo'llari va usullari xususida fuqarolar kelishuviga erishish to'g'risida norasmiy ijtimoiy shartnoma tuzish va uni ro'yobga chiqarishda davlat uchun sherik vujudga keltirildi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati o'z institutlari orqali shaxsning davlat ishlarini boshqarishda keng ishtirok etishini ta'minlagan holda, davlatda vakillik demokratiyasining va mamlakatdagi siyosiy tizimning asosi hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston xalqi fuqarolik institutlari va mexanizmlari, avvalo, saylov tizimi referendum, umumxalq muhokamalari orqali o'zining siyosiy yuksalishi va hayotiy muhim milliy manfaatlarini ifodalashi uchun barqaror shart-sharoitlar yaratmoqda.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati shaxs va jamiyat, fuqaro va davlat, etnik va konfessional jamoalar, ijtimoiy-demografik guruhlarning hayotiy muhim manfaatlari o'zaro maqbul muvozzantidan kelib chiqqan holda ko'rib chiqadi.

Beshinchidan, demokratik jamiyat fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligiga asoslangan. O'z navbatida, uning o'zi turmushning barcha sohalaridagi islohotlar jarayonida bunday faollikning o'sib borishini izchil rag'batlantirib boradi va davlatning barqarorlashuvi, uning institutlari fuqarolarning hayotiy muhim manfaatlaridan uzilib qolishi xavfiga qarshi turadi.

Jamiyatni demokralashtirish jarayonida, avvalo, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga

³² Rahmonov A.N., Xasanova 3. Davlat boshqaruvini demokratlashtirish - davr talabi. «O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va ma'naviy omillari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. — T.: «Iqtisodiyot», 2011. 21 bet

chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish lozim³³.

Adolatli fuqarolik jamiyatining asoslari shakllanayotgan paytda siyosiy ko'ppartiyaviylik, nodavlat notijorat tashkilotlar, shu jumladan inson huquqlarini himoya qilish, erkin va demokratik matbuot kabi demokratik institutlarni rivojlantirish tashkil topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolar o'zlari uchun yangi bo'lgan siyosiy tanlov imkoniyatiga, jamoatchilik tuzilmalari esa-fuqarolar tomonidan qo'llab-quvvatlanish uchun musobaqalashish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Demokratlashtirishning darajasi siyosiy partiyalar soniga qarab aniqlanmaydi, balki fuqarolik jamiyatining ehtiyojlariga va muayyan siyosiy guruhlar uning tub manfaatlarini ifodalashiga bog'liq bo'ladi. O'zbekistonda ijtimoiy fikr an'analari shundayki, siyosiy partiya tushunchasi uning ancha ko'p sonliligi, aholining ko'pgina qatlamlarlaridagi, mintaqalardagi ta'siri, uning vakillari davlat hokimiyati tizimida ishtirok etishi ko'lami, eng muhimi, fuqarolarni qiziqtiradigan muammolarni hal etishga qodirligi bilan belgilanadi.

Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim.

Siyosiy partiyalarga qo'yiladigan talablar reytingida davlatning konstitutsiyaviy normalarini hurmat qilish va ularga rioya etish birinchi o'ringa qo'yilgan. Siyosiy partiya tushunchasi, agar bunday partiya huquqiy asosda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan ustaviga muvofiq ish olib borsagina qo'llaniladi.

Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari Konstitutsiyamizning 34-moddasida, Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonunda (1996 yil 26 dekabr) va siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risidagi Qonunda (2004 yil 30 aprel) ta'riflab berilgan. Davlat siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza

³³ Aliev B.A., Rahmonov A.N. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning yuksak natijalari. - «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan» (ilmiy-ommabop risola). — T., 2011. 19 bet

etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va mansabdor shaxslarning siyosiy partiyalar ichki ishlariga aralashishlari yohud, agar faoliyat qonunga hamda o'z ustavlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa, ular faoliyatiga u yoki bu tarzda to'sqinlik qilishlari man etiladi³⁴.

Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonunning 5-moddasida siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'ymasligi belgilab qo'yilgan.

Agar sovet davrida hukmron yakka hokim partiyaning rahbarlari o'z amrini davlat hokimiyati organlariga o'tkazgan, qonunlarni inkor etgan bo'lsalar, endilikda qonun bunday xatti-harakatlarning g'ayriqonuniyligini alohida belgilab qo'ygan. Konstitutsiyaning 77-moddasi va Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonun parlamentda va mahalliy xalq deputatlari kengashlarida faoliyat yuritish uchun partiyalarga keng imkoniyatlar beradi. O'z vakillari ularga saylangan taqdirda, ular qonunchilik tashabbusi bilan chiqishlari, hukumatga va mahalliy davlat organlariga so'rov bilan murojaat etishlari, muhokama qilinayotgan kun tartibi bo'yicha partiya nuqtai nazarini tushuntirib berishlari mumkin.

Barcha siyosiy partiyalar jamiyatda obro'li kishilarga va yoshlarga tayanishga intiladi. Har bir siyosiy partiya barcha asosiy masalalar bo'yicha u yoki bu darajada hukumatni qo'llab-quvvatlashini va ularni amalga oshirish usullari to'g'risida takliflar bildirishda muayayn mustaqillikka egaligini e'lon qiladi.

Siyosiy partiyalarning rahbarlari va faollari o'zlarining shiorlariga fuqarolarning aksariyati loqaydligini va ularni saylovlarda qo'llab-quvvatlashga tayyor emasligini tan oladilar. Buni bartaraf etish uchun siyosiy partiyalar o'z rahbariyati tarkibiga yoshlarni kiritishni va ayni chog'da mahallalarda obro'li, partiya

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. — T.: «Iqtisodiyot», 2010. 21 bet

siyosatining targ'ibotchilari bo'lishga tayyor fuqarolarni jalb etishga intiladi. SHu maqsadda jamoatchilik fikri o'rganiladi, hamda xalq bayramlari va milliy bayramlar munosabati bilan ommaviy-siyosiy tadbirlar o'tkaziladi.

Ular xalq xokimiyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajarishi lozim bo'lgan demokratik institutga tezroq aylanishi o'ta muhimdir. Modernizatsiya va islohatchilik g'oyalarini va ularni ro'yobga chiqarish dasturlarini ko'tarib chiqish borasida partiyalar o'rtasida chinakam kimo'zarlik, raqobat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Amaldagi ko'ppariyaviylik - bu har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan, muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni demakdir.

Fuqarolarning siyosiy faolligi ularning partiyalardagi a'zoligi orqali ham, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati orqali ham, garchi u hokimiyat vakillik organlariga saylovlarda qatnashmay, siyosiy va mafkuraviy kurashdan chetda tursada, ro'yobga chiqarilishi mumkin.

Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tizimlarining mavqei o'sib bormoqda. So'nggi yillarda jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari soni 5000 tadan oshdi. "Ular faqat aholi fikrining turli ko'rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta'sir ko'rsatmoqda".

O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari shakllanayotgan fuqarolik mexanizmidir. Fuqarolar yoki yuridik shaxslarning tashabbusi bilan tuzilgan bu ko'ngilli, o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotlar xilma-xilligi bilan farqlanadi. Barcha nodavlat va jamoat birlashmalarini bir necha guruhlariga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh: aholi muayyan yirik toifalarining ijtimoiy manfaatlarini ko'zlab ishlashga ixtisoslashgan hukumatga qarashli bo'lmagan umummilliy tashkilotlar. Bunday tashkilotlar jumlasiga: "Mahalla" jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Nogironlar uyushmasi, "Kamolot" yoshlar jamg'armasi, "Nuroniy" faxriylar jamg'armasi kiradi.

Ikkinchi guruh: ixtisoslashgan milliy va xalqaro jamg'armalar: "Ekosan", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi, Amir Temur madaniy-tarixiy jamg'armasi,

matbuotni demokratlashtirish va jurnalistlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, Orolni qutqarish jamg‘armasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyat va fan arboblari anjumani.

Uchinchi guruh: hukumatga qarashli bo‘lmagan huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar: Shaxs huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi, Inson huquqlari va gumanitar huquqni o‘rganish markazi, sudyalari va advokatlar assosatsiyalari.

To‘rtinchi guruh: milliy madaniyat markazlari (yuztadan ziyod), O‘zbekistonda yashovchi milliy (ozchilikni tashkil etuvchi) jamoalar vakillarini madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlarini saqlab qolish maqsadida birlashtirgan.

Oltinchi guruh: umummilliy xayriya jamiyatlari, jamg‘armalari: Bolalar jamg‘armasi, bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy himoya qilish jamg‘armasi, Respublika talabalar jamg‘armasi.

Ettinchi guruh: ijtimoiy ahamiyatli va ijodiy qiziqishlar bilan bog‘liq, asosan, ekologiya masalalari bo‘yicha mahalliy birlashmalari: sayyohlik va badiiy havaskorlik klublari, nogiron bolalar ota-onalarining birlashmalari.

Sakkizinchi guruh: jamoat muassasalari: “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, Jurnalistlarni tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, shuningdek Samarqanddagi mushkul vaziyatlarda ayollar va o‘smirlarga ruhiy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi “Sabr” ishonch markazi kabi hukumatga qarashli bo‘lmagan mahalliy ijtimoiy muassasalar.

Qisman hukumatga qarashli holda (davlatning tashkiliy va moddiy-moliyaviy qo‘llab-quvvatlashida) tuzilgan bir qator jamg‘armalar, markazlar va jamiyatlarning hukumatga qarashli bo‘lmagan tashkilotlarga aylanishini tendentsiya sifatida e‘tirof etish mumkin. Bu O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari harakatining shakllanishiga xos xususiyatdir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari:

1.O‘z ustavi Konstitutsiya va qonun hujjatlariga muvofiq bo‘lgan taqdirda uni adliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish huquqiga ega.

2.O‘zining ijtimoiy ahamiyatli loyihalarini amalga oshirish uchun har qanday qonuniy asosda ishlab turgan dunyoviy tashkilot va fuqarolardan homiylik yordami

olishi mumkin.

3.Mamlakat mintaqalarida o‘z filiallari yoki boshqa tarkibiy bo‘linmalarin tuzadi, boshqa nohukumat tashkilotlarning muassislari bo‘lishi mumkin.

4.Ijodiy, xayriya, madaniy-ma’rifiy axborotga oid, ijtimoiy ko‘maklashuvga oid va jamiyat uchun foydali boshqa faoliyatni amalga oshiradi

5.Zaruriyat bo‘lganda muhtoj fuqarolar yoki boshqa nohukumat tashkilotlarni huquqiy jihatdan qo‘llab quvvatlaydi.

6.O‘z ustavi doirasida xalqaro faoliyat bilan shug‘ullanishi va chet el nodavlat tashkilotlari bilan aloqa bog‘lashi mumkin.

7.Davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov kompaniyalarida yoki boshqa siyosiy faoliyatda ishtirok etmaydi.

8.Odamlar sog‘lig‘i va ruhiyatiga zarari, O‘zbekiston Respublikasi xalqininig ma’naviy va madaniy qadriyatlariga putur etkazishga qaratilgan faoliyat olib bormaydi.³⁵

Nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirishning yaqin istiqbollari qanday? Nodavlat notijorat tashkilotlar shahar va mahallalarda, shuningdek, yoshlar, ayollar, nafaqaxo‘rlar o‘rtasida jadal rivojlanadi. Nohukumat tashkilotlarning hokimliklar tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan ijtimoiy loyihalari ommaviylashadi.

“SHuni alohida ta’kidlash kerakki, nodavlat va jamoat tashkilotlarining rivojlangan tizimi jamiyat manfaatlari uyg‘unligini qaror toptirish va mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Bu tizim davlat tuzilmalari faoliyatini muayyan ma’noda to‘ldirishi, ularga nisbatan ma’lum bir muvozanatni ta’minlovchi vazifani bajarishi lozim”³⁶.

O‘zbekistonda isloh qilinayotgan siyosiy tizimda paydo bo‘layotgan yangilanishlar bilan bir qatorda, ko‘nikib qolingan ijtimoiy tuzilmalar ham bemalol amal qilmoqda. Ular yangiliklar ta’sirida o‘zgarayapti, shuningdek biz xohlasak-xohlamasak, jahondagi demokratlashtirish tajribasini qo‘llashga ta’sir ko‘rsatadi. Bu

³⁵ O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1999 №5, 115-m.

³⁶ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. –T.: O‘zbekiston, 2001, 10-11 bet.

ko'p avlodli(katta oila), tengdoshlar va hamyurtlarning uyushmasi (gap, jo'ra), qo'shnilarning hududiy jamoasi-mahalladir. Mahalla O'zbekistonda ko'p ming yillik tarixga ega bo'lib, hozirda uning maqomi shaharlar va qishloqlarda ma'muriy munosabatlarni demokratlashtirish asosi sifatida zamonaviylashmoqda.

Sovet davrida avvalo yakka tartibda qurilgan uylarda va shaharning eski qolgan qismlarida yashovchi (shu jumalan ko'p millatli) aholi o'rtasida ishlab turgan mahalla tizimining huquqlari cheklangan edi. Biroq mahallalar birdamlik va o'zaro yordam muammolarini ancha samarali hal qilar edi va shu asnoda insonparvarlik munosabatlari saqlanib qolgan edi. Endilikda sanoat shaharlarining ko'p qavatli dahalari va ko'chalari aholisi ham mahalla bo'lib yashashning tashkiliy va madaniy tamoyillariga ko'ra birlashdilar.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillik va ijro etuvchi hokimiyatga nisbatan demokratik posangi bo'lish va tiyib turish tizimida mas'uliyatli o'rin tutadi. O'zini o'zi boshqarish organlari mahallalardan kelib chiqqan. 1993 yil 2 sentabrda qabul qilingan Qonun belgilaydiki, qishloq va ovullarda, shuningdek shaharlardagi turar joylarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari hisoblanadi. Ular 2,5 yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. 2004 yil 29 aprelda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" Qonun qabul qilindi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qanday ishlar bilan shug'ullanadi?

Birinchiidan, fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish borasidagi huquqlarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashadi.

Ikkinchiidan, o'z hududida ijtimoiy va ommaviy tadbirlarni o'tkazish, qonunlarni ijro etishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ko'maklashish maqsadida fuqarolarni uyushtiradi.

Uchinchiidan, millatlararo totuvlik bo'lishiga ko'maklashadi negaki ko'pgina aholi punktlarining etnik tarkibi xilma-xildir.

To'rtinchiidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z mulki, moliyasi, budjetiga ega, kichik korxonalar, kooperativlar, ustaxonalar,

hunarmandchilik tsexlari tashkil etadi, ana shu maqsadlar uchun bank krediti oladi.

Beshinchidan, fuqarolar yig'inining eng e'tiborli vakolatlaridan biri-oqsoqollarning korxonalariga, muassasalarga, fuqarolarga egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga er berish to'g'risidagi qarorlarini tasdiqlashdir.

Oltinchidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi orqali davlatning ijtimoiy yordamidan foydalanishni huquqiy rasmiylashtirish va ijtimoiy yordamni o'ta nochor aholiga taaqsimlash amalga oshiriladi³⁷.

Yashash joylarida aholi o'rtasidagi hukumatga qarashli bo'lmagan barcha ishlar tizimini butun mamlakatda o'z bo'limlariga ega bo'lgan nufuzli «Mahalla» jamg'armasi uyushtiradi. Oqsoqol davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, sud idoralarida, yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari manfaatlarini himoya qiladi. Oqsoqol-tuman va shaharlar bo'g'inidagi davlat xizmatchilari bilan samarali hamkorlik qilish vakolatiga ega bo'lgan jamoat arbobidir.

Hokimlar, qoida tariqasida, oqsoqollarning fikriga e'tibor bilan qaraydilar. Joylarda budjetni shakllantirishda mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga ko'proq o'rin berilishi zarur. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruvi rahbarlarining ijtimoiy va ishchanlik madaniyatini oshirish maqsadida keng jamoatchilik ishtirokida ularni attestatsiyadan o'tkazadi. Mahallalarning rasmiy sardorlari albatta yoshi ulug' kishilar bo'lishi kerak deb o'ylamaslik lozim. To'g'ri, ularning mutloq ko'pchiligi 40 yoshdan oshgan, lekin 65-70 yoshdan yuqori emas. SHunday holatni kuzatish mumkin: agar oqsoqollikka ancha keksa kishi saylangan bo'lsa, uning maslahatchilari orasida o'rta yoshli kishilar ko'proq bo'ladi. Va aksincha: o'rta yoshli oqsoqollarning maslahatchilari-ko'proq keksalar. Bu kishilar ko'chalar, ko'p qavatli uylar yoki an'anaviy mahallalarda qarindosh oilalar birlashmasi vakillaridir. Xulosa qilib, O'zbekiston jamoasini oilalar birlashmasi deb qarash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ommaviy axborot vositalarini tubdan isloh qilish zarurligini bir necha marta ta'kidlab o'tganlar³⁸.

³⁷ Ollamov YA, Saidov X fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi: nazariya va amaliyot masalalari. T. 2006, 45 bet

³⁸ Qarang: Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. -T:

“Ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda haqiqiy «To‘rtinchi hokimiyat» ga aylanishi, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda eng ta‘sirchan omil bo‘lishi kerak»³⁹.

Mamlakatimizda mustaqil siyosiy taraqqiyotning birinchi bosqichida ommaviy axborot vositalarining aksariyati O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquqning suveren sub‘ekti sifatidagi, o‘zining ko‘p millatli xalqi, milliy manfaatlarni ifodalovchi sifatidagi mohiyati va ahamiyatini fuqarolar ongiga etkazib bera oldilar. Ommaviy axborot vositalari millatlararo osoyishtalik va totuvlik saqlanishi hamda mustahkamlanishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda, Konstitutsiya va qonunlarni, islohotlarning borishini tushuntirib bermoqda. Ayni chog‘da demokratik jarayonlarning chuqurlashuvi ommaviy axborot vositalaridan kasbiy malaka va mahorat yangicha, yuksak darajada bo‘lishini, shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga daxldor muammolarga ro‘yi-rost qarashini, ularni ko‘tarib chiqishini talab qilmoqda.

O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining huquqiy negizini “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida»gi (ikkalasi-1997 yil 24 aprelda qabul qilingan) va «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi (1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan),”Axborot erkinligi printsiplariva kafolatlari to‘g‘risida”gi(2002 yil 12 dekabr qabul qilingan) Qonunlar jiddiy mustahkamladi. Ular vujudga keltirgan yangi huquqiy imkoniyatlarni ommaviy axborot vositalarining o‘ziga xos muammolari bilan solishtirilsa, ularning vazifalari va ularni yangilash istiqbollari yaqqolroq ayon bo‘ladi.

Jurnalistik faoliyatini himoya qilish O‘zbekiston qonunchiligida yangilikdir. Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik choralari belgilandi⁴⁰.

Ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil «To‘rtinchi hokimiyat» sifatida

O‘zbekiston, 1996 -30-33 betlar; Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T: O‘zbekiston, 1999 -30-31 betlar.

³⁹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz-T: O‘zbekiston, 2000 11-12 betlar.

⁴⁰ «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida»gi (ikkalasi-1997 yil 24 aprelda qabul qilingan) va «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi (1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan),”Axborot erkinligi printsiplariva kafolatlari to‘g‘risida”gi(2002 yil 12 dekabr qabul qilingan) Qonunlar . WWW LEX. UZ.

ishlashi uchun nimalar qilishi zarur?

Birinchidan, davlat hokimiyatining barcha «tarmoqlari», siyosiy partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlari, ularning rahbarlari, mansabdor shaxslar ommaviy axborot vositalarining faoliyatini qonun yo‘li bilan kafolatlovchi barcha normalarni ro‘yobga chiqarishda namuna bo‘lishlari lozim. Sud jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarining himoyachisi bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, samarali ishlovchi va xalqaro andozalarga mos jurnalist kadrlar tayyorlash va tarbiyalash milliy tizimini shakllantirish lozim.

Uchinchidan, shunday shart-sharoit yaratish kerakki, toki norasmiy jamoatchilik fikri, nohukumat tashkilotlar, jamiyatda obro‘-e‘tiborli fan va madaniyat oroboblari jur‘atli va halol jurnalistlarni faolroq qo‘llab-quvvatlasinlar.

To‘rtinchidan, mamlakatimizdagi xususiy investitsiyalarni ommaviy axborot vositalariga, matbaa vositalarini yangilashga sarflashni rag‘batlantirish kerak.

Beshinchidan, O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining xalqaro aloqalarini qo‘llab-quvvatlash lozim.

Sanab o‘tilgan va boshqa bir qator amaliy tashkiliy, huquqiy tadbirlarni amalga oshirish «Har bir fuqaroning o‘z fikrini erkin ifoda qilishi, axborot olish, davlat va jamiyat qurilishining o‘ta muhim masalalarini muhokama etishda faol qatnashish huquqini ta‘minlash demakdir»⁴¹.

2.3 Jahon konstitutsiyaviy tajribasi va O‘zbekiston Respublikasi

konstitutsiyasida inson huquqlari bo‘yicha halqaro andozalarining aks etishi.

Mustaqil O‘zbekiston - insoniyat ruhining ulug‘vorligi va aql ziyosining ramzi, umumbashariy tafakkurining beshiklaridan biri bo‘lmish diyordir. Mustaqil O‘zbekiston – noyob madaniyat va yuksak ma‘rifat, Sharq turmush falsafasi, insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘irilgan adabiyot va nafis san‘at mamlakatidir. Mustaqil O‘zbekistonning buyuk ko‘hna tarixi hozirgi zamon rivojlanishi bilan o‘zaro uzviy bog‘liq. Uning aql-ziyo va ma‘naviy-tarixiy salohiyati jahon hamjamiyatida munosib

⁴¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot –pirovard maqsadimiz. T: ,O‘zbekiston 2000 yil 12 bet.

o‘rin egallaydi.

Dunyoning umumiy siyosiy-ijtimoiy jarayonlari nuqtai nazaridan qaraganda O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishuvi tarixiy muqarrar hodisadir. Shuning uchun ham 1991 yilning 1 sentabrdan boshlab jahon siyosiy xaritasida yangi mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining paydo bo‘lishi tasodif yoki favqulodda hodisa emas, balki u ona zaminimizda asrlar osha o‘zbek xalqi va o‘zbek xalqi bilan yashab va mehnat qilayotgan mamlakatimiz xalqlarining asriy orzusi ro‘yobga chiqishi, olib borilgan mashaqqatli, aksariyat hollarda fojeali kurashining mahsulidir.

Har bir davlatning davlat sifatida qaytarilmas va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi asosiy hujjat uning Konstitutsiyasidir. Jamiyatni umumbashariy huquqiy qadriyatlar asosida tashkil etishda Konstitutsiyaning ahamiyati beqiyosdir. Asosiy Qonun o‘z mohiyati e‘tibori bilan har qanday demokratik jamiyatning bosh belgilaridan biri bo‘lib, unda inson, shaxs va jamiyatning huquqiy jihatlari, davlat hokimiyatining tuzilishi va uning idoralari faoliyatini tashkil etishning mezoniy qoidalari ifoda etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, Konstitutsiya davlatning o‘ziga xos tanishtiruv hujjati, «pasporti» desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har qanday mustaqil davlatning yuzi, obro‘-e‘tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya, yo‘lboshimiz haqli ravishda ta‘kidlaganlaridek, davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir. SHu ma’noda Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirdi. Konstitutsiyamiz tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir.

Jahon konstitutsiyaviy tajribasi o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq uch tarkibiy qismdan iborat.

Birinchi, Konstitutsiya to‘g‘risidagi g‘oyalar, qarashlar, ta‘limotlardir. Bular o‘zining tarixiy kelib chiqishiga ko‘ra juda qadimiylidir. «Konstitutsiya» iborasi qadimgi Rim respublikasida paydo bo‘lgan. O‘rta asrlarda esa u yoki bu davlatning konstitutsiyaviy xarakterdagi asosiy qonunlari asosan «xartiya» deb yuritilgan. Konstitutsiyaviy xarakterdagi qonunlar jumlasiga «Temur tuzuklari» ham kiradi.

Ikkinchi, tarixiy va hozirgi kunda amal qilayotgan Konstitutsiyalar.

Konstitutsiya yagona huquqiy hujjat sifatida 1787- yilda AQSh da paydo bo'lgan, ya'ni XVIII asr mahsulidir. taxminan hisoblarga qaraganda, shu kungacha jahonda 800 ga yaqin Konstitutsiya qabul qilingan.

Uchinchidan, konstitutsiyaviy amaliyot, ya'ni Konstitutsiyaning amaliy harakati, qo'llanilishi. Konstitutsiya har bir jamiyat va davlat taraqqiyotining huquqiy asoslarini yaratadi. Konstitutsiya-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohotlar, tinchlik, totuvlik, barqarorlik kafolatidir.

O'zbekiston jahon konstitutsiyaviy tajribasiga quyidagi yo'nalishlarda amaliy hissa qo'shgan.

Birinchi, jahon konstitutsiyaviy ta'limotiga va nazariyasiga. Bu hissa avvalambor, Movarounnahr fikr ta'limoti namoyondalarining asarlarida yaratilgan musulmon huquqi qadriyatlari haqidagi qarashlarda namoyon bo'ldi. Misol uchun, Burhoniddin Marg'inoniyning to'rt jildli fundamental «Hidoya» asarini ko'rsatish mumkin.

Ikkinchi, O'zbekiston hududida turli tarixiy davrlarda qabul qilingan Konstitutsiyalar. Bular jumlasiga «Temur tuzuklari»dan tortib sovet davridagi o'ndan ortiq Konstitutsiya kiradi. O'z xarakteriga ko'ra, bu Konstitutsiyalar mustamlaka, protektorat davlat Asosiy Qonunlari edi. Bunday Konstitutsiyalar XX asrning birinchi yarmida Suriya, Livan, Misrda ham bo'lgan.

Uchinchi, istiqlol yillaridagi konstitutsiyaviy amaliyotimiz bir qator chet el davlatlari uchun tajriba o'rganish ob'ektiga aylanmoqda. Jahon konstitutsiyaviy tajribasi quyidagi yo'nalishlarda o'rganilgan va hisobga olingan.

Birinchi, konstitutsiyaviy tartibga solish prinsiplari. Bu – insonparvarlik va inson huquqlari, hokimiyat vakolatlarini taqsimlash, xalqaro huquq ustuvorligi, Konstitutsiya ustunligi, konstitutsiyaviy nazorat.

Ikkinchi, Konstitutsiyaning tarkibiy tuzilishi, ya'ni uni muayyan tartibda muqaddima, bo'lim, bob va moddalardan iborat joylashtirilishidir. Bunda asosiy mezon bo'lib «Xalqchilik» hisoblanadi.

Uchinchi, har qanday siyosiy mafkuradan voz kechganlik, ya'ni bir mafkuraning yakka hokimligiga chek qo'yganlik. Ko'p fikrlilikning huquqiy asoslari

yaratilganligi.

To'rtinchidan, konstitutsiyaviy kafolatlar. Konstitutsiyaviy sudning tashkil etilishi, Prezidentning davlat boshlig'i sifatida barqarorlik, tinchlik va inson huquqlarining kafolatchisi ekanligi, Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning alohida tartibining joriy qilinishi Asosiy Qonun qoidalarining kafolatlanganligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solishning sharqona va ovro'pacha yondoshuvining uzviy uyg'unlashganligidir. Inson, oila, jamiyat, davlat manfaatlarining muvofiqlashganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Oltinchidan, Konstitutsiyaning tili ixchamligi, lo'nda va ravonligi. Jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlar konstitutsiyaviy darajada tartibga solinadi.

Yettinchidan, Konstitutsiyamiz jahon konstitutsiyaviy taraqqiyoti qonunlarini o'zida aks ettiradi. Asosiy maqsad: totalitar tuzumdan fuqarolik jamiyatiga, huquqiy demokratik davlatga o'tishdir.

Inson huquqlari – inson shaxsi va turmushining tarkibiy qismi. SHu bois, inson huquqlari kontseptsiyasining shakllanish jarayoni jamiyatning taraqqiyot tarixi bilan uzviy bog'liq holda, uzoq tadrijiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Inson huquqlarini tushunib etish uchun nihoyatda muhim bo'lgan odamlarning tabiiy tengligi g'oyalari qadim yunon mutafakkirlari (Protagor, Antifont, Likofron) va qadim Xitoy donishmandlari (Mao-tszzi, Konfutsiy)ning siyosiy hamda huquqiy ta'limotlarida eramizdan oldingi VI-IV asrlardayoq ilgari surilgan.

Huquq sub'ekti va qonun oldidagi tenglik tushunchalarini ishlab chiqishdagi xizmatlar qadimgi Rim huquqshunoslariga tegishli. TSitseron «Hamma qonun ta'siri ostida bo'lishi kerak», deb ta'kidlangan edi. SHuni qayd etish lozimki, qadimgi YUnoniston va qadimgi Rim qonunuchiligida mutafakkirlarning mazkur masala yuzasidan qarashlari bevosita aynan shunday ifodasini topmagan edi.

Qonun tomonidan inson huquqlari faqat quldorlar uchun imtiyoz sifatida qarab chiqilib, behisob qullar ommasini huquqi inkor etilar edi.

Shunday tamoyil o'rta asrlarga ham xosdir. Aholining qatlamlari turli tabaqalarga bo'lingan o'sha davrlarda inson huquqi ayrim tabaqalarning imtiyozi

hisoblanib, huquqiy tenglik muayyan tabaqaga mansublik bilangina belgilanardi. Shu bilan birga inson huquqlarining tabaqaviy cheklanganligi shaxs dahlsizligi huquqi ilk bora ifodalangan inglizlarning 1215-yilgi «Erkinliklarning ulug' buyuk Xartiyasi» ahamiyatini aslo pasaytirmaydi. «Hech bir erkin inson xibs qilinmaydi, qamoqqa mahkum etilmaydi yoxud mol-mulki tortib olinmaydi, biror-bir vosita bilan nochor ahvolga solinmaydi. Faqat qonuniy hukm va davlat qonuni bo'yichagina choralar ko'riladi», deb e'lon qiluvchi 39-modda mazkur hujjat shuhratini ta'minlagan edi⁴².

Inson huquqlarining tabiiy-huquqiy kontseptsiyasini shakllantirishda XVI-XVIII asrlarda yashab o'tgan ingliz Lokk, amerikalik Peyn va Jefferson, frantsuzlar Russo, Monteske, Volter, gollandiyalik Grotsiy kabi ma'rifatparvar mutafakkirlar etakchi o'rin tutdilar. Ularning odamlar tengligi, tug'ilishdan ularga ato etilgan yashash, erkinlik va xavfsizlik kabi huquqlarning dahlsizligiga doir g'oyalari burjua inqiloblari va burjua davlatlarining shakllanishi jarayonidagi konstitutsiyaviy hujjatlar Angliyada 1628 - yilgi «Huquqlar to'g'risidagi arznoma», «Huquqlar to'g'risidagi bob»da, Amerikada «Virjiniya huquqlar to'g'risidagi deklaratsiyasi» (1689), «AQSh mustaqillik deklaratsiyasi» (1776) hamda «Huquqlar to'g'risidagi bill» (1791), Frantsiyada «Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi» (1789)da o'z ifodasini topdi. Shu jihatdan «Virjiniya huquqi deklaratsiyasi» diqqatga sazovor. Bu inson huquqlari kontseptsiyasi bayon etilgan Konstitutsiya shakldagi dastlabki hujjat edi. Unda barcha odamlar Tangri tomonidan teng qilib yaratilgan va ularga ajralmas muayyan huquqlar ato etilgan, degan qoida mustahkamlangan. Hayot, erkinlik hamda baxt-saodatga intilish shu huquqlar sirasiga kiradi. Mazkur huquqlarni ta'minlash uchun odamlar o'rtasida davlatlar ta'sis etiladiki, ular o'z oqilona vakolatlarini boshqariluvchilar hamjihatligidan oladilar, deyilgan g'oya o'z-o'zidan ma'lum haqiqat sifatida qayd qilingan edi. SHundan beri «Inson huquqlari» falsafiy va huquqiy atamashunoslikda muhim o'rin oldi.

Frantsiyada 1789- yili qabul qilingan «Inson va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi» tarixiy konstitutsiyaviy hujjatlar orasida muhim o'rin egallaydi. Inson

⁴² Z.Muqimov. Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. (Qadimgi dunyo hamda o`rta asrlar davlati va huquqi tarixi). O`quv qo`llanmasi. - Samarqand, 1992. 56 bet

huquqlarining mazmun-mohiyati unda aniq va ixcham ta'riflangan, inson shaxsining qadr-qimmatini ta'kidlangan, fuqarolik jamiyatida shaxs maqomini belgilashda davlatning roli belgilab berilgan.

Huquqiy davlat bir kunda qurilgan emas. Lekin muayyan yuridik me'yorlar va siyosiy tuzilmalar yaratilishida ongli hatti-harakatlar sodir etilganini ham inkor etib bo'lmaydi. Bunday davlatlar tarixan siyosiy-davlatchilik an'alarining saqlanishi tufayli tabiiy ravishda paydo bo'lgan. Antik davrda stoiklar tomonidan shakllantirilgan tabiiy huquq g'oyasidan huquqiy davlat g'oyasi o'sib chiqqani ham tasodifiy emas. Ular tabiiy huquq deganda inson tabiatiga mos bo'lgan va insonni inson qilib turgan huquqlarni nazarda tutar edi. Insonning bu huquqlarining birontasidan mahrum qilinishi uni insonlik maqomidan mahrum qilib, qulga, mahkumga yoki harbiy asirga aylantirib qo'yar edi. Tabiiy huquqlar sirasiga yashash huquqi, xavfsizlik, mulkka egalik, erkin yurish va shunga o'xshash boshqa huquqlar kiradi.

Shunday qilib, inson huquqlari g'oyasi o'zining uzoq tarixiy ildizlariga ega. Insoniyat tarixini inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan tarix deb ta'riflash bo'ladi. XX asr inson huquqlari borasida yangi sahifa ochdi.

O'zbekiston milliy mustaqilligining samarasi bo'lmish birinchi Konstitutsiya o'zbek xalqi uchun eng buyuk yutuq hisoblanadi.

Asrlar mobaynida diyorimizda tartib va intizomga e'tibor berish an'anaviy tus olgan. Qadimiy hoqonliklar davridan tortib, Temuriylar davrigacha va undan keyin vujudga kelgan davlatlarda mamlakatning mustahkamligi va milliy manfaatlarini ko'zlab turli qonun-qoidalar ishlatilgan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi ushbu mustahkam negiz uzra qurilib, o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribalarining asorasi (shirasi) sifatida yuzaga keldi desak yanglishmaymiz, chunki O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddimasida uni tuzishda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilganiga ishora qilinadi.

Hozirgi zamonda har bir mamlakatning qonunlari, ayniqsa, uning asosiy qonuniga unda qancha Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining qadriyatlarini

aks ettirilganiga qarab baho beriladi. Aytish mumkinki, qonunlarga baho berish uchun ushbu me'yor eng asosiy va haqiqatga mos keladigan o'lchovdir, chunki inson huquqini kafolat qilish uchun jahonning barcha davlatlari tomonidan tasdiqlangan ushbu xalqaro deklaratsiyadan ustun turadigan boshqa hujjat yo'q.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi e'lon qilinganiga 50 yil (1948-1998) to'lishi munosabati bilan «Inson huquqlari: savollar va javoblar» sarlavhasi ostida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan nashr etilgan hujjatda bunday deyilgan edi: «Inson huquqi, usiz yashab bo'lmaydigan bizning azaliy, tabiiy va bashariy huquqimizdan iboratdir. Inson huquqi va asosiy erkinliklar bizga o'z insoniy iste'dodimiz, aql va vijdonimizdan foydalanib o'z ehtiyojimizni ta'minlashga imkon beradi».

Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining muqaddimasida bunday deyilgan: «Bashariyat oilasi barcha a'zolarining qadr-qimmatini va ularning ajratib bo'lmaz huquqlarini e'tirof etish, jahon miqyosida erkinlik, adolat va tinchlik negizini tashkil etadi. Umumiy assambleya ushbu deklaratsiyani barcha insonlar va hamma millatlarning mushtarak istagi deb e'lon qiladi».

O'zbekiston Konstitutsiyasi, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 30 ta moddasida kiritilgan barcha qadriyatlarni qamrab olib, mukammal suratda ularni aks ettirishi bilan, jahonning yirik va demokratik davlatlari asosiy qonunlari qatorida o'ziga munosib o'rin tutadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining Muqaddimasida o'zbek xalqi nomidan:

birinchidan, inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqlik e'lon qilinadi;

ikkinchidan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligi tan olinadi;

uchinchidan, insonparvar demokratik davlat barpo etishi ko'zlanadi;

to'rtinchidan, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsad qilib qo'yiladi.

Mazkur muqaddimada zikr etilgan bu asosiy prinsiplar, boshqa bir necha qoidalar bilan birga O'zbekiston Asosiy Qonunining ichki mazmuni, ruhi va

mohiyatini ifodalab, unda kiritilgan 128 moddaning mazmunini qisqacha ifodalab beradi. Konstitutsiyaning 13-moddasiga binoan, O‘zbekistonda qonunchilik demokratik, umuminsoniy prinsiplarga asoslanib, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari, oliy qadriyat hisoblanadi, demokratik huquq va erkinliklar, konstitutsiya va qonun bilan himoya qilinadi. Ushbu modda o‘zining yorqin va komil ifodasi bilan, inson maqomini va uning asosiy huquqlarini eng yuksak va oliy darajaga ko‘taradi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining eng muhim tomonlaridan biri shundan iboratki, bu sohada faqatgina umumiy prinsiplarni zikr etib o‘tish bilan cheklanib qolmay, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini ayrim boblarda keng ko‘lamda aks ettirib, ularning himoyasi uchun kafolat beriladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 24-moddasi: «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir». SHuningdek, 25-moddada «Har kim erkin va shaxsiy dahlsizlik huquqiga ega» deb ta’kidlanadi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 19-moddasida hech kimni o‘zboshimchalik bilan hibsga olish va qamoqda saqlash mumkin emasligi ta’kidlansa, O‘zbekiston Konstitutsiyasi 25-moddasining ikkinchi xat boshida «Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas» deyiladi.

Yuqorida berilgan qisqa misollardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining barcha qadriyatlari yetarli darajada va to‘laroq shaklda ifoda etilib himoya qilingan. Masalan, 24-moddada «Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir» iborasi bilan insonning yashash huquqi va shaxsiy dahlsizlik huquqi jiddiy suratda himoya ostiga olingan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi barcha demokratik qoidalar, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘lgan barcha davlatlar tomonidan tasdiqlangan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining barcha qadriyatlarini o‘zida aks ettirgan milliy-tarixiy hujjatdir.

Konstitutsiya o'zbek xalqiga milliy, demokratik huquqiy davlat soyasida yashash uchun huquqiy sharoit yaratib berib, ularni bozor iqtisodiyotiga va bu yo'ldan yangi hayot ufqlari tomon yo'llab boradi hamda O'zbekiston Respublikasiga jahon miqiyosida buyuk demokratik davlatlar qatorida yuksak va e'tiborli o'rin tutish uchun yordam beradi.

Xulosa.

Huquqiy tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning xilma - xilligi ko'plab huquqiy normalarning mavjud bo'lishi va amal qilinishini taqozo etadi. Ularni o'rganish bilan turli sohadagi yuridik fanlar shug'ullanadi, ularning har biri ma'lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarning alohida guruhini o'rganadi.

Konstitutsiyaviy - muayyan bir davlatning huquqiy normalar tizimi bo'lib, usha davlatda fuqarolarning jamiyat va davlat oldidagi huquqiy xolatini, jamiyat boshqaruvi asoslarini, davlat organlari va jamoat birlashmalarining mamlakatdagi huquqiy maqomini belgilab beradi.

Konstitutsiyaning vazifasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlatchilikni rivojlantirish, adolatli tashqi siyosat olib borish, O'zbekistonni dunyoda buyuk davlat darajasiga ko'tarish, respublikada huquqiy demokratik davlat barpo etish, adolatli jamiyat qurish, konstitutsiyaviy huquq normalari va huquqiy institutlarni takomillashtirishga doir muammolarni tadqiq etish, jamiyatda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni o'rganish va buning natijasida respublika qonunlarini rivojlantirish uchun zarur takliflarni tayyorlashdan iborat.

Demak, konstitutsiyaning ijtimoiy xayotda tutgan vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplarini belgilab beradi. ya'ni davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi konstitutsiyaviy konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, tashqi siyosat prinsiplarini o'zida aks ettiradi.

Ikkinchidan, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini belgilovchi huquqiy normalar yig'indisidir;

Uchinchidan, O'zbekistonda jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, ya'ni jamiyatning iqtisodiy negizlari, jamoat birlashmalari, oila ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosini belgilab beradi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston respublikasining ma‘muriy - huquqiy va davlat tuzilishini belgilaydigan huquqiy normalar yig‘indisidir.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimini, uni tashkil etishni, davlat organlarining vakolatlari va ishlab tartibini belgilab beradi.

Otinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy davlatchilikning tiklanishi va shakllanishining, umuman, mustaqillikning huquqiy poydevori va mustahkam asosidir. Bosh qomusimiz O‘zbekistonning har bir fuqarosi, davlat va jamiyat uchun aniq yo‘lni belgilab bergan Asosiy qonunimiz, Vatanimiz va davlatimizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini tashkil etish va boshqarish uchun muhim tarixiy hujjatdir.

Yettinchidan, mustaqillik davri mobaynida erishilgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, shuningdek, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyot va uning barqaror o‘sish sur‘atlari, aholi farovonligining muttasil oshib borishi, jahon hamjamiyatida O‘zbekistonning obro‘-e‘tibori tobora yuksalib borayotgani - bularning barchasi Konstitutsiyamiz asosiga qo‘yilgan maqsad, tamoyil va me‘yorlarning hayotbaxsh samarasidir.

Sakkizinchidan, O‘zbekiston tanlagan va „o‘zbek modeli» deb dunyoda tan olingan mamlakatning taraqqiyot yo‘li, uning asosini tashkil etadigan tamoyil va mezonlarning nechog‘liq to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi yaqqol tasdiqlab bermoqda va unga bo‘lgan ishonch tobora ortib bermoqda. O‘zbekistonning tadrijiy taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishi izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani, shuningdek, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish qoidalari hayotga izchil tatbiq etilayotgani barcha yutuqlarning sharti va garovi bo‘lmoqda.

To‘qqizinchidan, xalqimiz erishgan ulkan marralarning eng muhimi eski tizimdan butunlay voz kechib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratlashtirish yo‘lidan dadil borayotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qat‘iy va izchil tus olganida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda odamlarimizning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati tobora o‘zgarmoqda. Fuqarolarning siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan fuqarolik mas‘uliyati, daxldorlik hissi oshib bermoqda.

O'ninchidan, ushbu omillarning barchasi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish, yurtimizning taraqqiyot va farovonlik yo'lidan izchil rivojlanib borishini, yangi marralarni qo'lga kiritishimizni ta'minlaydigan qudratli harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: «O`zbekiston», 2012.
2. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. T. : «O`zbekiston» 1992
3. Karimov I.A. «O`zbekiston kelajagi buyuk davlat» T. :«O`zbekiston» 1992
4. Karimov I.A. «O`zbekiston kelajagi buyuk davlat» T. : «O`zbekiston» 1992
5. Karimov I.A. O`zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –T.: «O`zbekiston» 1992
6. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin».T.: «O`zbekiston», 1996
7. Karimov I.A: «Bunyodkorlik yo`lidan»,. T.: «O`zbekiston» – 1996
8. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. –T: «O`zbekiston» 1996
9. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T: «O`zbekiston» 1999
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz- T: «O`zbekiston» 2000
11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. – T.: «O`zbekiston» 2001
12. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T. :«O`zbekiston», 2005
13. Karimov I.A. O`zbekiston Respubli-kasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo`shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqaro-lik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” mavzusidagi ma`ruzasini o`rganish bo`yicha o`quv-uslubiy majmua. — T.: «Iqtisodiyot», 2010
14. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. - T., 2011
15. Davlat mustaqilligi to`g`risidagi Oliy Kengash bayonoti. «Xalq so`zi»1991 yil 2 sentabr.
16. Muqimov Z.: Chet mamlakatlar davlati va huquqi tarixi. (Qadimgi dunyo hamda o`rta asrlar davlati va huquqi tarixi). O`quv qo`llanmasi. - Samarqand, 1992

17. O‘razaev Sh.Z.: Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasi qanday yaratildi //Inson va demokratiya. – 1993. –2son.
- 18.O‘razaev Sh.Z.. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi. T.: «Adolat», 1994
- 19.O‘razaev Sh.Z.: «Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi», T., «Adolat» 1994
- 20.A.A.Azizxo‘jaev.:O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlar Abdumajidov F., M.AAxmadshaeva va boshq.; Mas’ul muharrir A.A.Azizxo‘jaev; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. — T.: 2008
- 21.Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish - bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag‘ishlangats tantanali marosimdagi ma’ruzasi. — “Xalq so‘zi”, 2012 yil 8 dekabr.
- 22.A.X Saidov. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. T.: 1993,
- 23.Qayumov R.Q. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997 y,
24. Sh.Z.O‘razaev. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi. T., «Adolat», 1994 y.,
- 25.Qayumov R.Q. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. T., IIV Akademiyasi, 1997
- 26.Rahmonov A.N.. Xasanova Z., Davlat boshqaruvini demokratlashtirish- davr talabi. «O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va ma’naviy omillari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. — T.: «Iqtisodiyot», 2011
27. Aliev B.A., Rahmonov A.N. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning yuksak natijalari.- «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan» (ilmiy-ommabop risola). T, 2011.
- 28.O‘zbekiston yuridik entsiklopediyasi / Nashr uchun mas’ul RA.Muhitdinov va boshq.; Mas’ul muharrir N.Toychiev. -T.: „Adolat», 2010
- 29.Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’ miilash, hayotimizning yanada erkin va obod bo ‘lishiga erishish — bizning bosh maqsadimizdir.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent, 2013

30. Mustaqillik: izohli ilmiy-omimabop lug'at // Mualliflar: M. Abdullaev, M. Abdullaeva, F. Abdullaeva, T. Abdurazzotsova va boshq.; R. Ro'ziev va Q. Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri / — T.: «Sharq», 2006

31. Rahmonov A.N. O'zbekiston va Germaniyada parlamentning hukumatga ishonchsizlik bildirish huquqi (qiyosiy tahlil). „O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish-ning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-huquqiy va ma'naviy omillari» mavzusida respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. — T.: «Iqtisodiyot», 2011

Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. — T.: «Yangi asr avlodi», 2006

32. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan „Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, №5.1999

33. Ollamov YA, Saidov X fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi: nazariya va amaliyot masalalari. T. 2006

34. «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi, «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida»gi (ikkalasi-1997 yil 24 aprelda qabul qilingan) va «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (1997 yil 26 dekabrda qabul qilingan) Axborot erkinligi printsiplariva kafolatlari to'g'risidagi (2002 yil 12 dekabr qabul qilingan) Qonunlar . [www lex. uz](http://www.lex.uz).

Quyidagi Internet saytlaridan foydalanildi:

1. www.gov.uz

2. [www. press - service. uz.](http://www.press-service.uz)
3. [www. bilim. uz.](http://www.bilim.uz)
4. [www. philosophy.ru.](http://www.philosophy.ru)
5. [www. filosofiya.ru.](http://www.filosofiya.ru)
6. [www. philosophy.nsc.ru.](http://www.philosophy.nsc.ru)
7. [http // philosophy.albertina.ru.](http://philosophy.albertina.ru)
8. [www. history.ru.](http://www.history.ru)
9. [www lex. uz.](http://www.lex.uz)